

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**MAGISTRATURANING O'ZBEK TILI
MUTAXASSISLIGI UCHUN**

MATN LINGVISTIKASI

FANIDAN

MA'RUZALAR MATNI



NUKUS 2012

Tuzuvchi:
Taqrizchilar:

p.f.n. SH.Bo'ronova
f.f.n. dotsent F.Bobojonov
F.f.n. dotsent E.Xo'janiyazov

Ma'ruzalar matni Nukus davlat pedagogika instituti
filologiya fakulteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining
2012 yil ____ yig'ilishida muhokama qilinib
ma'qullangan

Kafedra mudiri:

f.f.n. M.Xudoyorova

SO'Z BOSHI

Jamiyatda yashovchi kishilar turli xil matnlar bilan qurshab olingan. Inson o'z hayotining dastlabki yillaridanoq turli rasmlar ostidagi imzolar, ertak, matal, hikoyalar tarzidagi matnlarga duch keladi. Keyinchalik kishi ulg'ayishi bilan e'lon, ariza, gazeta maqolasi, darslik, risola, o'quv qo'llanmasi, badiiy asar, ilmiy maqola, monografiya, dissertatsiya, buyruq, qaror, xat tarzidagi matnlarga duch keladi. SHunga binoan matn hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Matnning amaliy va nazariy masalalarini tadqiq etish, uning semantik-grammatik bog'lanishini iyoda etuvchi vositalar va usullarni o'rganish o'zbek tilshunosligida endigina yo'lga qo'yildi.

Ma'lumki, matn nazariyasi tilshunoslikning boshqa sohalari, jumladan grammatika, semasiologiya, stilistika kabilar bilan uzviy aloqadordir. XX asrning 60-yillardan boshlab tilshunos olimlar psixolingvistlar bilan hamkorlikda matnnig mohiyatini, uning shakllanish boshqichlarini tadqiq etishga kirishdilar. Natijada nutq hodisasiga juda keng doiraga yondoshilib, har qanday matn kishi nutqiy faoliyatining mahsuli, degan ilmiy qarash tilshunoslikdan mustahkam o'rin oldi. Matning yaratilishi uning idrok qilinishi, tushunilishidan tashqarida bo'lishi mumkin emas. SHunga binoan matn yaratish, hosil bo'lish bosqichlarini nutqiy faoliyat jarayonining mahsul sifatida tadqiq etish sohasida ham qator yutuqlarga erishildi.

Har bir matn murakkab tuzilma va u muayyan mazmun ifodalovchi og'zaki va yozma ijod mahsuli sanaladi. SHunga muvofiq matnni lisoniy jixatdan tahlil qilishning o'ziga xos metodlari va usullari mavjud.

Matnni tadqiq etish sohasida tilshunoslik fani oldida bir qator vazifalar turibdi:

- matn maqomini belgilash va uning tasnifiy asoslarini ishlab chiqish;
- matnning umumiy va xususiy belgilarini, ularning farqli tomonlarini aniqlash;
- matnning metoddologiyasi, metodlari va usullarini asoslash;
- matnning turlari va ularning xarakterli belgilarini tasnif qilish;

- matnning kommunikativ, struktural, semantik grammatik belgilarini ifodalovchi vosita va usullarini o'rganish;
- matn sintaksisini tadqiq etish, unda lingvistik kategoriya (sodda gap, qo'shma gap, o'zga gap, period kabi) larning o'rnini belgilash.
- Matn lingvistikasining manbashunoslik bilan aloqadorlik tamoyillarini belgilash, ularning nazariy hamda amaliy xususiyatlarini aniqlash;
- O'zbekcha matnlarini boshqa tillardagi matnlar bilan qiyoslab o'rganish, bunday qiyosiy-tipologik tahlillarini til egalarining madaniyati, urf-odati, tarixi bilan bog'lab olib borish va hokazo.

Mazkur uslubiy qo'llanma lingvistika (o'zbek tili) ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistrantlarga mo'ljallangan bo'lib, matn tilshunosligi, bu fanning maqsadi, vazifalari, asosiy muammolari haqida qisqacha ma'lumot beradi. Ishni tayyorlashda V.V.Odinsovning «Tekst stilistikasi» (1980), I.R.Galperinning «matn lingvistik tahlil ob'ekti sifatida» (1981), X.Doniyorov, B.Yo'ldoshevlarning «Adabiy til va badiiy stil» (1988), V.P.Belyaninning «badiiy tekstning psixolingvistik aspektlari» (1988), N.M.SHanskiyning «badiiy tekstning lingvistik tahlili» (1990), B.O'rinboev, J.Lapasovlarning «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» (1990), «ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari» mavzuidagi respublika ilmiy anjumani materiallari (1997), E.Qilichevning «Matnning lingvistik tahlili» (2000), N.Q.Turniyozovning «Matn lingvistikasi» (2004) kabi asarlaridagi fikr-mulohazalardan ijodiy foydalanildi.

Matn tilshunosligi bo'yicha dastlabki uslubiy qo'llanmalardan biri bo'lgani uchun ushbu ayrim nuqsonlar, to'ldirilishi zarur o'rinlar bo'lishi tabiiy. SHunga binoan mazkur asarning sifatini yanada yaxshilashga qaratilgan har qanday tanqidiy fikr-mulohazalarni mualliflar samimiyat bilan qabul qiladilar.

NUTQDA TILNING QO'LLANILISHI VA MATN TUSHUNCHASI

Tayanch so'z va birikmalar: Sistema, belgi, ifodalovchi, ifodalanuvchi, narsaning nomi, tushuncha, tilning vertualligi, nutqning konkretligi, til unsurlarining me'yoridan ortiq qo'llanilishi, ortiqchalik tilning yutug'i, ortiqchalik tilning nuqsoni, avtonom monema, funktsional monema, qaram monema, yarimfunktsional va superfunktsional monemalar, voqelikka munosabat, murakkab sintaktik qurilma, abzats.

Ma'lumki, tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrgacha tilning ijtimoiy hodisa ekanligi va uning jamiyat taraqqiyotidagi mavqeyi masalasi yaxshi o'rganilgan. Bu masala faqat tilshunoslarni emas, balki faylasuflar, tarixchilar, etnograflar, psixologlar va boshqa mutaxassislarni ham qiziqtirib kelmoqda.

Jamiyatda tilning tutgan o'rni uning nutqda real qo'llanilishi bilan bevosita aloqador. Biz nutq haqida fikr yuritganda, eng avvalo tilning murakkab sistema ekanligini chuqur tushunish etnog'imiz lozim bo'ladi, chunki til sistemasidagi ana shu elementlar (birliklar) nutqni tashkil etuvchi asosiy xomashyodir.

SHvetsariyalik mashhur tilshunos Ferdinand de Sossyur (1857-1913) tilning murakkab sistema ekanligi birinchilardan bo'lib ilmiy asoslardan edi. Sossyur til sistemasi belgilardan (signe) tashkil topishini va har bir belgi o'ziga xos va barcha belgilar uchun umumiy bo'lgan ikki jixatga ega ekanligini dalillab berdi. Olim bu jihatlarning birini ifodalovchi (signefie), ikkinchisini esa ifodalovchi (signifian) deb nomlaydi. Ularning birinchisi shakl tushunchasi bilan, ikkinchisi esa mazmun bilan bevosita bog'liq bo'lib, birining ishtirokisiz ikkinchisi belgining shakllanishini asoslay olmaydi. Bunda belgining ifodalovchi jihatini nutq tovushlari etadi, uning ifodalanuvchi tomoni esa ma'no belgilaydi.

Ma'no leksik (lug'aviy) yoki grammatik xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ularning har ikkisi ham belgini ifodalashda faol ishtirok etadi. Masalan, olma,

qalam so'zlari til belgisi sifatida leksik ma'no ifodalasa, uchun, bilan, va, xam so'zlar faqat grammatik ma'no ifodalaydi.

Belgining tildagi o'rni va bir-biridan farqi ikki vosita orqali belgilanadi: 1. Tovush. 2.Ma'no. Bunga non, don, qon, shon, jon, kon, tok, chok, pok; bosh, qosh, tosh kabi bir tovush orqali farqlanuvchi so'zlarni misol keltirish mumkin. Biroq shakldosh so'zlarda til belgilari, asosan, ma'no orqali farqlanadi.

F.Sossyurning tilshunoslik fani uchun katta xizmatlaridan biri «til va nutq» dixotomiyasini ilmiy asoslaganida ko'rinadi (1,98-103). Sossyur ta'limotida til bilan nutqni nafaqat biri ikkinchisi bilan uzviy bog'liq hodisalar sifatida, balki biri ikkinchisiga zid bo'lgan hodisalar tarzida ham ifodalanadi. Ularning o'zaro uzviy bog'liqligi tilsiz nutq, va aksincha, nutqsiz tilning mavjud bo'la olmasligida ko'rinadi. SHu bilan birga til va nutqning o'zaro ziddiyati tilning umumiyliigi, nutqning esa xususiyligida, tilning virtualligi, nutqning esa aktualligida ham kuzatiladi.

Til birliklari orasida eng faoli so'zdir. Ammo so'z tilning mavhum va ko'p ma'noli birligidir (bunga terminlar kirmaydi). Masalan, Yer so'zi sayyora (planeta) tushunchasidan tashqari, o'rin, joy, sath, tuproq qatlami, tomorqa kabi bir necha ma'noda qo'llanadi. Biroq nutqda har safar ana shu ma'nolardan faqat bittasi faollasha oladi. Mazkur ma'no ifodalarning barchasini nutqda bir yo'lga faollashtirib bo'lmaydi. CHunki nutq doim biror aniq xabar ifodasini berish maqsadida shakllanadi. Bu esa, o'z navbatida, so'zlovchiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Ayni paytda shuni ham aytish lozimki, so'zlovchining nutqida ko'p hollarda turli xil nuqsonlar, jumladan ma'no kamchiliklari uchraydi. Masalan, rus tilidagi priglasenie uchitelya birikmasining qo'llanishida ikki xil ma'no ifodasi ko'zga tashlanadi: o'qituvchi kimnidir taklif qilmoqda yoki kimdir o'qituvchini taklif qilmoqda. Bu singari misolni o'zbek tili materialida ham ko'rish mumkin: Qishlog'imizda ikki ordenli o'qituvchi yashaydi. Mazkur gapni quyidagi ikki ma'noda tushunish mumkin: Qishlog'imizda yashaydigan o'qituvchining ikki ordeni bor yoki Qishlog'imizda yashaydigan ikkita o'qituvchining ordenlari bor. Bunday vaziyatda, shubhasiz, tinglovchi o'ziga

kerakli ma'lumotni olish uchun ancha qiynaladi. SHuning uchun til birliklarining nutqda qo'llanilishida so'zlovchining mas'uliyati, til birliklarini o'ziga xos ohang, urg'u bilan talaffuz qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

YUqoridagilardan tashqari, nutkning shakllanishida so'zlovchi til unsurlarining tejalishi masalasiga ham e'tibor bermog'i lozim. CHunki nutqda til unsurlarining takroriy qo'llanishi yoki ma'lum bir xabar ifodasining birlashida ularning suiste'mol qilinishi nutqiy ma'no ifodasining lo'nda va tushunarli qilib voqelanishiga, so'zsiz, salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu fikr isboti uchun quyidagi misolga murojaat etaylik: SHunday sovuqda qo'lda tugunsak bilan qayoqqa boryapsiz? – shunday sovuqda qo'lda tugunchak bilan mehmonga boryapman.

Ko'rinadiki, ayni paytda savol beruvchi nutqda ham, javob beruvchi nutqida ham so'z qo'llanilishida ortiqchalikka yo'l qo'yilgan. Havoning sovuqligi, qo'lda tugunchak borligi so'zlovchiga ham, tinglovchiga ham ko'rinib turgan narsa. SHu bois bu o'rinda nutqiy muhit ishtirokchilaridan biri oddiygina qilib Qayoqqa? deganida , ikkinchisi Mehmonga tarzida javob berishi ham mumkin edi.

Nutqda qo'llanilgan bunday ortiqcha so'zlar nutqiy ortiqchalik deb ataladi. Biroq tilda ham shunday ortiqchalik kuzatiladi. Masalan: Men magistrman. Bunda men kishilik olmoshi qo'llanilgan holda yana man shaxs-son qo'shimchasi ham ishlatilmoqda. Lekin ayni paytda uni jumla (matn) tarkibidan tushirib qoldirib bo'lmaydi.

Umuman, tildagi ortiqchalikni bartaraf etish qiyin. Nutqdagi ortiqchalikni esa istalgan paytda bartaraf etsa bo'ladi. Tildagi ortiqchalik haqida amerikalik tilshunos G.Glisonning quyidagi fikrlarini esa olish mumkin: «Ortiqchalik-bu tilning kamchiligi emas, balki uning ishtirokisiz til faoliyati ko'rsata olmaydigan eng muhim omildir».

Tildagi ortiqchalik haqida so'z yuritilganda shunga ham ahamiyat berish zarurki, ortiqcha qo'lanilayotgan til unsurlari ni bunda takror ma'nosida tushunmaslik kerak. Qiyoslaylik: Men magistrman. Ayni paytda man takror emas, balki jumla tarkibida kesim vazifasida kelayotgan so'zga sintaktik faollik

beruvchi vosita, uni tildan nutqqa qo'chirayotgan morfologik birlik sifatida faollik ko'rsatmoqda. Bu esa tildagi ortiqchalik muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. biroq bundan tildagi ortiqchaliku har doim ham til birliklarini nutqqa ko'chiruvchi vosita vazifasida keladi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Chunki tilning nutqqa ko'chirilishida turli xil morfologik vositalar ishtirok etadi. Bunday vositalarni Praga tilshunoslik maktabining yirik namoyondalaridan biri A.Martine «monema» termini orqali izohlangan edi. A.Martine ta'limotida monema nutqning eng kichik birligi hisoblanib, uning vositasida til unsurlari nutqda sintaktik faollik oladi, yoxud u o'zi-o'ziga sintaktik aktuallik baxsh etadi.

A.Martine monemaning uch xil ko'rinishiga ega ekanligini ta'kidlaydi va ularni quyidagi nomlar bilan ataydi: avtonom (muxtor) monema, funktsional monema, qaram (tobe) monema.

Avtonom (muxtor) monema vazifasida kelgan morfologik unsurlar tildan nutqqa ko'chganda boshqa biror monemaning yordamiga muxtoj bo'lmaydi. Bunga tillarda kirish so'z, undalma vazifalarida kelgan so'zlar misol bo'la oladi. Funktsional monema esa o'ziga qaram bo'lgan biror unsurga sintaktik funksiya beradi va uni bir paytning o'zida tildan nutqqa qo'shimchasi (-ning) ishtirokisiz Pyer so'zi nutqiy funksiya bajara olmaydi. Demak, o'zbek tilida -ning affiksi yordamida funktsional faollik olayotgan so'z qaram monemadir, -ning affiksi esa funktsional monema vazifasida kelmoqda.

Nutqning shakllanishida funktsional monema boshqa monemalarga nisbatan ancha semahsuldir. N.Turniyozov va K.Turniyozovalarning «Funktsional sintaksisga kirish» monografiyasida funktsional monemaning uch turi haqida fikr bildiriladi va ular quyidagicha nomlanadi: yarim funktsional monema, funktsional monema, superfunktsional monema.

Bu ishda yarim funktsional monema deyilganda, artikl, egalik, ko'plik, erkalash, kisraytirish qo'shimchalari kabi grammatik vositalar inobatga olingan. Superfunktsional monema esa alohida olingan til unsurlariga emas, balki birikma holidagi til unsurlariga hamda matn maqomida keluvchi qo'shma gap

komponentlariga nutqiy faollik berishlari bilan funktsional monemaning boshqa turlaridan keskin farq qiladi.

Hozirgi davrda matn tilshunosligi deb nomlanayotgan soha tez sur'atlar shakllanib bormoqda. Bu soha o'z diqqatini gapdan katta kommunikativ shakllanishlarning xususiyatlarini o'rganishga qaratmoqda. Matn tilshunosligi ma'nolari alohida gap ichida tabiiy ravishda ochilmaydigan, semantik vazifalari matndagi mustaqil gaplarning rang-barang mazmuniy munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi til birliklarining haqiqiy tabiatini atroflicha tushuntirishga, izohlashga intilmoqda. Masalan, o'zbek tilidagi –ku, -da, oq //-yo'q, -ki singari ta'kid yuklamalarini o'rganish uzoq yillar gap doirasida chegaralanib keldi va ularga «gapdagi so'zlarning ma'nolarini yoki gap mazmunini ta'kidlaydi», deb umumiy ta'riflar berildi. Hozirgi matn tilshunosligi esa bu yuulamalariga mustaqil gaplarning mazmuniy, kommunikativ, etotsional-ekspressiv holatlarini shakllantiruvchi (ifodalovchi) va ayni paytda ularning matniy (tekstual) bog'lanishlarini yo'lga qo'yuvchi lisoniy birliklar sifatida qaraydi. Masalan, Men bbordim-ku. Siz nega bormadingiz? Matnida – ku yuklamasining vazifalari eski xabar (tema)ni – «bordim»ni ta'kidlab ko'rsatish va shu orqali ikkinchi gapdagi uyg'un semantikali nisbiy yangi xabar (rema)ga-«bormadingiz»ga ham urg'u berish, ayni paytda oldingi va keyingi gaplarning kesimlarini aktuallashtirib nisbatlash orqali bog'lash, shuningdek, ta'kidlashning bu turi orqali «shunday bo'lsa ham» yoki «hech narsaga qaramay» kabi qo'shimcha his va yordamchi mazmunlar berish uchun xizmat qiladi.

SHu kunga qadar o'zbek tilshunosligida xullas, birinchidan, ikkinchidan singari ayrim so'zlar tashqi o'xshatishlar asosida modal so'zlar guruhida o'rganib kelinmoqda. Bu so'zlar ajraluvchan mavqeiga ko'ra ko'rinishicha, ehtimol kabi modal so'zlarga juda o'xshash bo'lsa-da, ular o'zlarining ma'no turlariga ko'ra modallik kategoriyasi bilan aloqasi yo'q. Aslida birinchidan, ikkinchidan, xullas kabi so'zlar gap ichiga kirib olgan matn bog'lovchilari bo'lib, o'zlarining modal bo'lmagan qo'shimcha ma'nolari bilan ajralib turadi. YOki men, sen, biz, o'sha, o'z sindagi olmosh turkumiga oid so'zlarning gap ichi imkoniyatlari asosida o'rganilish ularga xos bolgan ma'no va vazifalar

ko'lamining noto'liq ochiliishga sabab bo'lmoqda. O'zbek tilida olmoshlar ko'p hollarda matn bog'lovchilari vazifasini bajarsa ham, ba'zan nutqiy situatsiya bilan bog'liq holda o'zlarining ishora ma'nolarini anglatiladilar.

Ko'chirma gapli qurilmalar, o'zga gap shakllari gap va matn oralig'idagi hodisalar bo'lib, bular ham gap sintakisis va matn tilshunosligining hamkorliklaridagina chuqur tadqiq etilishi mumkin.

Aytish lozimki, til unsurlari, avval eslatib o'tilgani sindagi (terminlardan tashqari), mavhum ifodali bo'ladi. Ular nutqqa ko'chirilgandagina konkret ma'no kasb etadi. Umuman, tilning nutqda qo'llanilgan har qanday birligi ham mavhumlik iskanjasida bo'lavermaydi. Aks holda, berilayotgan xabar ifodasiga putur etkaziladi. Masalan, til sistemasidagi yong'in so'zini oladigan bo'lsak, uning mavhum ifodali ekanligi izoh talab qilmaydi. Lekin u YOng'in!. Tarzida nutqqa ko'chirilsa, nafaqat konkret ifodali, balki mustaqil holdagi matn maqomida bo'ladi. Bu, o'z navbatida, matn tushunchasining keng ko'lamli ekanligidan dalolat beradi. Boshqacha aytganda, matn bir so'z bilan, bir necha so'z bilan, bir necha gap bilan, bir necha abzats bilan va bir necha bob bilan ifodalanishi ham mumkin. Fikir isboti uchun quyidagi misollarga e'tibor beraylik:

1. Katta san'at asarlarining nomlari: «O'qituvchi», «SHarshara», «Bizning qishloq», «YOsh kosmonavt».

2. Sulton turgan qir ham, pastdagi soy ham, soyning u uzidagi tepalik ham – hammayoq hisobsiz lashkarga to'lgan, u yoqdan – bu yoqqa ot surgan suvoriylar haqidagi, qurol-yaraqlarning sharaq-shurug'i, otlar dupuri, jangovor fillar na'arasi, yoru-ko'kni larzaga solgan (O.YOqubov. Ko'hna dunyo).

3. Ikki sarboz biri oldinda, biri orqada. Malikul sharobni zindondan olib chiqishdi-da, uzun tor yo'lakdan qayoqqadir boshlab ketishdi.

Malikul sharob tekis yo'ldan qoqinib-surinib borarkan, uni kutayotgan kiynoqlar to'grisida emas, hamon Bobo Xurnoning so'zlari to'g'risidja o'ylaydi (O. YOqubov. Ko'hna dunyo). Keltirilgan misollarning birinchisida matn ifodasining bir so'z bilan va ikki so'z orqali berilayotganini ko'ramiz. Bunday

vaziyatda mustaqil soʻz va soʻz birikmalari toʻliq predikativlik maʼnosi ni anglatadi va voqealikka munosabat bildiradi.

Ikkinchi misolda matn yoyiq holatda kelgan ikki sodda gapning oʻzaro birikuvi natijasida voqealikdan murakkab sinaktik qurilma ifodalanmoqda. Bunday vaziyatda matn oʻzaro bogʻlangan gap qolipdagi ikki komponentdan tashkil topadi.

Uchinchi misolda esa matn komponentlari ikki abzatsni taqozo etmoqda. Ayni paytda matn tarkibiga kirayotgan abzatslar oʻzaro mazmuniy jihatdan bogʻlangan boʻladi.

Gaplarning mazmun turlarini matn omillari zaminida tadqiq etish matn tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Matn tilshunosligining adabiyotshunoslik fani bilan mustahkam aloqasi tilning estetik funktsiyalarini filologik zaminida turib tadqiq etish imkoniyatini yaratmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday matn ham til unsurlarining nutqda real qoʻllanilishi uchun makon hisoblanadi. Til insurlari hajman katta yoki kichik boʻlishidan qatʼi nazar, nutqda (matn tarkibida) oʻzining tom maʼnodagi mazmuniy ifodasini topadi. Nazariy tilshunoslik doimo til taʼlimining mazmun mundariyasi va yoʻnalishini belgilash kelganligini inobatga oladigan boʻlsak, oʻzbek tili birliklarining matn oqimining rang-barang xususiyatlarini chuqur tadqiq etish va bu sohadagi yutuqlarini oʻzbek tili taʼlimiga olib kirish matn tilshunosligi fanining dolzarb vazifalaridan biri ekanligi oʻz-oʻzidan ayon boʻladi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Tilning jamiyatdagi oʻrni va vazifasi nimadan iborat?
2. Til sistemasi va strukturasi tavsifini bering.
3. Tilning belgilik xususiyati deganda nimani tushunasiz?
4. Til belgisining oʻziga xos sifatlari nimalardan iborat?
5. Lugʻaviy (leksik) va grammatik maʼnolarning farqini izohlang.

MATN TILSHUNOSLIGINING O'RGANILISH TARIXI HAQIDA

Tayanch so'z va birikmalar: Dixotomiya, real qo'llanish, og'zaki nutq, yozma nutq, maxsus qo'llanish, nutq muhiti, stilistika, bog'lanish, nutq birligi, kommunikativ birlik, pragmatika, inson omili, zamon, makon.

Bugungi kunga qadar tilshunoslik fani ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. bu holat tilning fonologik, morfologik, sintaktik sathlarining har biri bilan bog'liq muammolar talqinida yaqqol ko'zga tashlanadi. Lekin jahon tilshunosligida matn va uning lisoniy tabiatini o'rganish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar keyingi chorak asr davomida kun tartibiga qo'yila boshladi. Bu narsa alohida olingan rus, ukrain, frantsuz, nemis, ingliz tilshunosligi kabi bir necha xususiy tilshunosliklar uchungina emas, balki umumiy tilshunoslik uchun ham xarakterlidir.

Bugungi kunda matnni lingvistik tahlil qilishni nimadan boshlamoq kerak va bunda qanday masalalarga asosiy e'tibor qaratilishi lozim, degan savollarga ham tilshunoslarning berayotgan javoblari bir-biriga unchalik mos kelmaydi. Masalan, matnning nutq kategoriyasi ekanligini dalilovchi olimlar uning belgilar tabiati nimalardan iborat, matnni nutqiy jarayon deb atash lozimini yoki matnni nutqiy jarayonning natijasi sifatida talqin etish kerakmi, matnni og'zaki nutq bilan yoki yozma nutq bilan bog'lab o'rganish to'g'ri bo'ladimi, degan muammolarni kun tartibiga qo'ymoqdalar.

Matninng nutq kategoriyasi ekanligi masalasi bevosita «nutqiy jarayonning o'zi» va «nutqiy faoliyat natijasi» tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. CHex olimi K.Grauzepblas matnni ham nutqiy faoliyat sifatida, ham nutqiy faoliyat mahsuli (natijasi) tarzida talqin etadi. bunda yozma nutq nutqiy faoliyat mahsuli sifatida, og'zaki nutq (shu jumladan uning magnit tasmasidagi ifodasi ham) nutqiy jarayon deb talqin qilinadi.

Rus tilshunosi I.R.Galperning talqiniga ko'ra, matn har tmoonlama mukammal holatga keltirilgan yozma nutq mahsulidir. Og'zaki nutq esa turli qaytariqlarni, uzoq-yuliy gaplarni ham o'z ichiga oladi va shu bois uni tekshiruv ob'ekti bo'la oladigan matn deb e'tirof etish maqsadga muvofiq emas. Matn tahdilini sintaksisda yoki stilistikada o'rganish lozimmi yoxud uning uchun matn tilshunosligi deb ataluvchi yangi sohani ilmiy asoslash kerakmi? degan savollar ham fanda o'z echimini ko'tmoqda. Darhaqiqat, matn lingvistikasi masalasi talqin etila boshlaganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Nemis olimi R.Xarbekning ta'kidlashicha, matn tilshunosligining to'liq asoslanishi uchun hali kamida 100 yil kerak.

XX asrning 60-yillariga qadar gap sintaksisi lingvistik tahlilining eng yuqori pog'onasi deb hisoblana edi. Bu o'rinda Polyak olimi M.R.Mayanovanning quyidagini fikrini keltirish mumkin: «YAqin davrlarga qadar lingvistik ko'zatuvlar gap shakli nihoyasiga etgan erda tugatilar edi. Ko'plab gaplarni o'z ichiga oladigan matn esa mazkur ilmiy izlanish doirasidan tashqarida qolar edi».

Ma'lumki, gap tilning eng yuqori pog'onasini tashkil etuvchi birlik sanaladi. Ammo gap nutqiy jarayonda eng kichik birliklar jumlasiga kiradi. SHuning uchun ham gapni matnning qurilish materiali tarzida talqin etish maqsadga muvofiq. Nemis tilshunosi M.Pfyuze ta'kidlaganidek matn biror maqsad ifodasi uchun o'zaro munosabatga kirishayotgan frazalarning mazmuniga ko'ra birikishidan tashkil topadi.

Lekin gap matnning qo'rilish materiali tarzida talqin etilganda mustaqil so'z va so'z birikmasining matn tarzida maxsus qo'llanishi e'tiborga olinmaydi. Ayni paytda yakka alohida olingan gap bog'lanishi nutq materiali sifatida talqin qilinadi. Pfyuzening yuqorida keltirilgan mulohazalarida ham diqqat shunga qaratilgan. Frantsuz tilshunosi Bart matni quyidagicha tushunadi. «Ichki bog'lanishi bo'lgan muloqat maqsadida mazmunan o'zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi matn deb ataladi».

Umuman R.Bartning tadqiqotida matnning bir necha komponentli turi haqida ma'lumot beriladi. Boshqacha aytganda, bu o'rinda ham asosiy e'tibor

katta matnga qaratilgani seziladi. Bunday holat boshqa tilshunoslarda ham kuzatiladi. Masalan, polyak tilshunosi A.Boguslavskiy matnni bir necha gapdan tashkil topgan nutqiy material tarzida izohlaydi. Bunda u asosiy e'tiborni muallif nima haqda gapirayotgani va uning mazmuniga emas, balki mazkur matn qanday komponentlardan tuzilayotganiga qaratadi.

Amsterdam universitetning professori T. van Deyk matn va uning o'ziga xos tabiatini pragmatika bilan bog'lab o'rganadi. Uning tadqiqotlarida asosiy e'tibor matnning grammatik xususiyatlariga qaratilgan edi. T.van Deyk matnning grammatik jihatlarini oldin logik va analitik falsafa qoidalar bilan bog'lab o'rganishga harakat qiladi. Biroq u ko'p o'tmay bunday fikrdan qaytadi, zotan, mantiq o'rganadigan semantika lingvistik semantika bilan hech qachon bir xil asosga ega bo'la olmaydi. Chunki matnning ham, tilshunoslikning ham semantika bobida bir-biridan keskin farqlanuvchi jihatlari mavjud.

Deykning bunday xulosaga kelishiga Kaliforniya universiteti professorlari Lakoff hamda Filmorlarning ta'siri katta bo'lgan. T.van Deyk o'z tadqiqotlari davomida matn faqat gaplarning o'zaro bog'lanishidan emas, balki nutqiy aktlarning ham o'zaro bog'lanishidan tashkil topadi, degan to'g'ri xulosa keladi.

Matn va uning lingvistik tabiati haqida chex tilshunosi Kveta Kojevpekovaning muloxazalari ham diqqatga sazovordir. K.Kojevnikova tadqiqotlarida asosiy e'tibor matnning bog'lanishli nutq mahsuli ekanligiga qaratiladi.

K.Kojevpikova matn haqida mulohaza yuritganida, uning mazmuniy jihatdan tugallangan bo'lishini alohida uqtiradi. Olamning matn komponentlari o'zaro ma'no jihatidan ham, grammatik jihatdan ham bog'lanishli bo'lishi haqidagi fikri e'tiborga molikdir, chunki ko'pchilik tilshunoslar matn komponentlarining faqat mazmuniy bog'lanishli bo'lishini ta'kidlaydilar va ularning leksik-grammatik vositalar orqali bog'lanishini nazardan chetda qoldiradilar.

K.Kojevnikovaning matnini mazmuniy jihatdan tugallangan eng yuqori ideal kommunikativ birlik sifatida tushupadi. SHuning uchun matnning gap, murakkab sintaktik qurilma, abzats, bob singari birliklar munosabatidan tashkil topgan nutq yoki til birligi tarzida izohlanishi maqsadga nomuvofiq ekanligi alohida ta'kidlanadi. Buning sababi shundaki, ba'zi tilshunoslar, masalan, rus psixologvisti A.A.Leontyevning fikricha, "matn funktsional jihatdan tugallangan nutq birligidir".

Matnini nutq birligi deb tushunish xato emas, chunki matnini kommunikativ birlik deganda, biz muloqot birligini tushunamiz, muloqot esa, o'z navbatida, nutq jarayonida shakllanadi.

CHex tilshunosi YAn Korjenskiy matn talqinini semantik va pragmatik komponent tushunchalari bilan bog'lab olib boradi. Bunda u semantik komponent birinchi galda matn materialini uyushtiruvchi ma'no bazasi hamda uning voqelanishini ta'minlovchi vositalardan iborat, deb hisoblaydi. Olim semantik komponent jumlasiga so'zlovchini, ya'ni inson omilini ham kiritadi. Pragmatik komponent deganda esa, ma'no ifodasi sistemasida ahamiyat kasb etuvchi turli xil munosabatlarni tushunadi. Masalan, bu jihatdan men, sen, u, biz, ular kabi kichilik olmoshlarini pragmatik vositalar jumlasiga kiritish mumkin. Ko'rsatish va so'roq olmoshlari esa, kishilik olmoshlaridan farqli ravishda, semantik vositalar, yoxud matnning semantik komponentlari sirasiga kiradi. CHunki ular shaxs (aktant)lar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Kishilik olmoshlari esa matn tarkibida bajaruvchi shaxs (aktant) vazifasida keladi.

YUqoridagilardan tashqari, makon va zamon tushunchasini ifodalovchi birliklarni ham pragmatik, yoxud semantik komponent jumlasiga kiritish mumkin. Masalan, oldin, avval, keyin, so'ng kabi so'zlar so'zlovchining payt, zamon kordinatlari bilan bog'liq bo'lgani uchun semantik komponentlar sanalsa, u yerda, shu erda, u yoqqa kabi makon ma'nosi bilan bog'liq so'zlar pragmatik komponentlardir.

YA.Korjepski o'z tadqiqotlarida pragmatik komponent semantik va matn komponentlari oralig'ida voqelanishini ta'kidlaydi. Bunda matn komponenti maqomida tilning tovushlar sistemasi real qo'llanilishi mumkin

hamda ular grafik belgilar uchun makon bo'lib xizmat qiladi. Umuman, YA.Korjenskiy talqinicha, jumla (gap) matn komponenti sanaluvchi asosiy vosita sanaladi.

Bizningcha, YAn Korjenskiy semantik komponent hamda pragmatik komponent tushunchalarini ko'p o'rinlarda qorishtirib yuboradi va natijada tadqiqotchi ma'lum bir tushunchani semantik yoki pragmatik komponentlarning qaysi biriga kiritish maqsadga muvofiq bo'linishi aniqlashda qiynaladi. Masalan, so'zlovchi hamda tinglovchini bimalol va qat'iy ravishda pragmatik komponentlar sirasiga kiritish lozim. Biroq YAn Korjenskiyinson omilini semantik komponent jumlasiga kiritish kerakligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, matnning mazmuniy salmog'i butunligi va tugal holatda ekanligi ta'kidlanarkan, semantik komponent deganda qandaydir boshqa omilni nazarda tutush darkor edi.

Bundan tashqari, matn tarkibida mavjud bo'lgan morfologik vositalarning birini matn komponenti deb, ikkinchisini semantik komponent deb ajratib o'rganish uchun ehtiyoj sezilmaydi. Zotan, ularning barchasi matn komponentlaridir. Matn komponentlarining semantik yoki sintaktik jihatlari haqida so'z yuritilganda, ularning har birini yo semantik, yoxud sintaktik rejaga ko'ra o'rganish o'z-o'zidan talab qilinadi.

Nemis tilshunosi K.Naydolfning matn xususidagi fikri ham o'ziga xos jixatlari bilan ajralib turadi. U matnni kommunikativ jarayonda gaplarning ma'lum xabar ifodasini berish uchun o'zaro bog'lanishi tarzida tushunadi. Olimning fikricha, matn tarkibida gaplarning tartib bilan o'zaro bog'lanib kelishida quyidagilar e'tiborga olmog'i darkor: a) fikr butunligi; b) leksik butunlik; v) kommunikativ bitunlik; g) zamon va nuqtai nazar butunliklari.

Bu o'rinda, K.Naydolf mulohazalariga qo'shilish mumkin, chunki matnning yaxlit kommunikativ butunligini ta'minlash uchun tugal fikr ifodasining bo'lishi, gaplarning o'zaro munosabatini semantik va sintaktik jihatlardan tashkil eta oladigan leksik vositalarning, fikr ifodasining zamon nuqtai nazarida bekamu ko'stligi ta'minlangan bo'lishi eng asosiy shartlardan biridir.

Rus tilshunosligida ham keyingi 30-40 yil davomida matn lingvistikasi bo'yicha qator tadqiqot ishlari bajarildi. Mazkur mavzuda A.A.Lyontov, YU.V.Rachdetsvenskiy, G.A.Zolotova, M.V.Lyapon, M.A.Lyanenka, YU.A.Reforovskaya, G.A.Salganik va boshqa tilshunoslarning ishlari e'lon qilingan. Quyida ularning ayrimlari haqida qisqacha ma'lumot keltiramiz. E.A.Referovskayaning fikriga ko'ra hozirgi paytgacha matn strukturasi masalalari murakkab sintaktik qurilma materialini asosida o'rganilib kelindi. Buning asosiy sababi murakkab sintaktik qurilma bir necha gapdan tashkil topib, matn maqomiga ham kelishi mumkinligidadir. Hozirgi davrga qadar matn lingvistikasi bo'yicha asosan masalaning umumiy jihatlari tadqiqot metodlari haqida bildirayotgan fikr va mulohazalar ham murakkab sintaktik qurilma materiallariga asoslanmoqda. Matn tilshunosligining boshqa masalalari tadqiqi olimaning ta'kidlashicha hali o'z echimini ko'tirmoqda. Yana bir rus olimi M.V.Lyapon ham matn tilshunosligi muammolarini murakkab sintaktik qurilmalar asosida talqin etadi. U matn tavsifi quyidagi 4 tamoiylga asoslanishi mumkinligini ko'rsatadi:

1. Matn – bu jummalarning o'zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini o'rganishda birdan-bir manbadir.

2. Matn – bu so'zlovchining nutqiy qobiliyatini ruyobga chiqaruvchi vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qo'llanishini ta'minlovchi makon vazifasini ham bajaradi.

3. Matn – bu so'zlovchining faol nutqiy faoliyati maqsulidir.

4. Matn – bu til sistemasi ning kommunikativ jarayonida muhim funktsiya bajaruvchi eng yuqori pog'onasidir.

M.V.Lyapon matn shakllanishida inson omilining eng muhim faktorlardan biri ekanligini, inson matn shakllanish uchun jonli manba ekanligini ham to'g'ri ta'kidlaydi. "Inson omili, - deydi u, - hozirgi tilshunoslikning e'tibori markasida bo'lib, (pragmatika semantika sintaktika) dasturining hayotga tadqiq etilishida muhim mavqeiga egadir".

V.G.Gak talqinicha, matn tahliliga “Pragmatik nuqtai nazardan yondashish til birliklari talqini uchun an’anaviy tilshunoslikda e’tibordan chetda qolgan istiqbol yo’llarini ochadi”.

G.YA.Solganik tadqiqotlarida hozirgi sintakisining asosiy vazifalari (so’z birikmalari va gapdan tashqari) mustaqil gaplarning o’zaro munosabatlari, prozaik strofalari strukturasi, bob va hato butun bir asardan matn shakllanishi o’rganish kabi masalalar ham kiritiladi. Biroq G.YA.Solganijiy sintaksisda bu ob’ektlarning barchasi grammatik jihatdan talqin etib kelinayotganligi qaniqorli emasligi, matn talqinida nafaqat sintaktik qoidalar balki stilistik omillar ham e’tiborga olinishi lozimligini ta’kidlaydi. SHunday qilib, jahon tilshunosligida matn lingvistikasi bobida kam bo’lsada yutuqlarga erishilgan. Biroq turkiy tilshunoslikdan jumlada o’zbek tilshunosligida matn lingvistikasi muammolari hali endigina o’rganilmoqda.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Matn lingvistikasi muammolari tilshunoslarni qachondan qiziqтира boshladi?
2. Nutqiy faoliyat va nutqiy faoliyat mahsuli haqida ma’lumot bering?
3. Matn og’zaki nutq yoki yozma nutq mahsuli hisoblanadimi?
4. Matn sintaksisdanmi yoki stilistikada o’rganiladi. Matn tilshunosligi deb ataluvchi yangi yo’nalishni asoslash lozimmi?
5. Matnning qurilish materialli nimalardan iborat?
6. Matn bir so’z yoki birikma bilan ham ifodalanishi mumkinmi?
7. Matn faqat gaplarning bog’lanishidan tashkil topadimi?
8. Matnni nutq birligi yoki kommunikativ birlik sifatida tushunish maqsadga muvofiqmi?
9. Matn tashkil etilishida pragmatik omillar xam qatnashadimi?
10. Matn va inson omili haqida gapiring?
11. Matn komponentlarning bog’lanishi ekanligini izohlang?

ADABIYOTLAR:

1. Galperin I.R. O. ponyatii “tekst”// Voprosy yazykovaniya, 1974, №6.
2. Xarveg R. Textlinguistik. In.Prespektiven der Linguistik, 1974.

3. Deyk T.YA.van. YАзык. Poznanie. Kommunikatsiya. M., Progress, 1989.
4. Kojevnikova K. Ob aspektax svyaznosti v tekste kak tselom//Sintaksis teksta. M., Nauka, 1979.
5. Leont'ev A.A. Vыskazyvanie kak predmet lingvistiki, psixologvistiki i teorii kommunikatsii// Sintaksisi teksta. M., Nauka, 1979.
6. Korjenskiy YA. Pragmaticheskiy komponen i teoriya teksta//Sintaksis teksta, M,| Nauka, 1979.
7. Referovskaya E.A. Lingvisticheskie issledovaniya struktury teksta. L., Nauka, 1983.
8. Lyapon M.V. Smyslovaya struktura slojnogo predlojeniya i tekst. M., Nauka, 1986.
9. Gak V.G. Pragmatika, uzus i grammatika rechi// Inostrannyye yazyki v shkole, 1982.
- 10.Solganik G.YA. Sintaksicheskaya stilistika, M., Vыsshaya shkola, 1973.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MATN VA UNI O'RGANISH MUAMMOLARI

Tayan so'z va birikmalar: matnshunoslik, kogerent, pragmatika, mikromatn, makromatn, ilmiy matn, badiiy matn, kommunikativ nutqiy butunlik, nutq generatsiyasi, matn kogeziyasi, matn retrospektiviyasi.

“Matnshunoslik” atamasi o'zida ikki tushunchani ifoda etadi. SHulardan biri muayyan matnning tanqidiy tekstlarini yaratish mazmunini ifodalasa, ikkinchisida matnga lingvistik tadqiqot ob'ekti sifatida qaralib, bir fikriy butunlikni ifoda etuvchi gaplar, sintaktik butunliklar yig'indisini nazarda tutadi. “matn” (tekst) atamasiga lug'atlarda quyidagicha ta'rif berilgan. Q. “YOnma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst”. 2. “Tekst (lat.textus – to'qima, aloqa so'zidan) – tekst. Qo'l yozma yoki nashr etilgan asarlardagi avtorning asl so'zi”. Ko'rinadiki, bu ikki ta'rifada ham “matn” (tekst)ning asosiy xususiyatlari ochib berilmagan.

Matn nutqning yirik ko'rinishi bo'lib, vazifasi jihatdan tugal nutqiy butunlik sanaladi. Matning murakkabligi va hajmi, kommunikativ vazifasi, muayyan janr talablariga mosligi va matn qismlarining xarakteri singari masalalar keyingi 20-30 yildan buyon o'zbek tilshunoslarining ham diqqa e'tiborida bo'lib kelmoqda. O'z vaqtida akademik A.N.Kononov murakkab fikrni ifodalashda yakka gapning o'zi kifoya qilmaydi, uni boshqa gaplar qurshovida tekshirish lozim, degan fikrni olga so'rgan edi. Keyinchalik o'zbek tili sintaksisiga bag'ishlangan tadqiqotlarda gapdan yirik birliklarni ifodalovchi “Murakkab sintaktik bo'lib butunlik”, “Diskurs”, “Mikromatn”, “Makromatn” singari atamalar qo'llaniladigan bo'ldi. Butunittifoq turkiyshunoslar anjumanda (Toshkent, 1980) akad.G'.Abdurahmonov “Matn nazariyasi” mavzuida ma'ruza qilgan edi.

Ma'lumki, matnni muayyan belgi – xususiyatlariga ega bo'lgan statik (turg'un) ob'ekt sifatida tadqiq etish uni boshqa aspektlarda o'rganishda aslo monelik qilmaydi. Matnning lisoniy tabiati, uning tuzilish, asosiy kategoriyalari matn tilshunosligi fani uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lsa, matn generatsiyasi matnning yaratilishi jarayoni kabi masalalar xam bu fan uchun

shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning bu fikrimiz birinchi navbatda badiiy matnlarga tegishlidir. Nutq generatsiyasi nuqtai nazaridan matn stratik hodisa emas, balki dinamik hodisa hisoblanadi. Matnning qo'lyozma varianti ustida ishlash yoki asarni qayta nashrga tayyorlash jarayonida yozuvchi (matn ijodkori) tomonidan butun matnga yoki uning muayyan qismlarga ma'lum o'zgarishlar kiritiladi. Bunday o'zgarishlar natijasida butun matnning yoki uning biror qismining o'ziga xos qo'shimcha nusxalari, variantlari yuzaga keladi. Matnning qo'shimcha nusxasi yoki varianti deyilganda, mazkur matnda tasvirlangan voqea hodisalarning boshqa voqea hodisalar bilan almashuvi emas, balki o'sha voqea-hodisalarni tasvirlovchi ifoda vositalarning boshqa ifoda vositalari bilan almashuvi ko'zda tutiladi. Masalaga ana shu naqtai nazardan qaraganda, I.Qo'chqartoev va H.Nizamxonovlarning "Badiiy asarning tekstual variantlari – lingvostilistik tadqiqot ob'ektlardan biri" nomli ilmiy maqolasi ham o'zbek matnshunosligida aloqida o'rin tutadi. Keyinchalik R.Qo'chqartoeva, X.Nizamxonov, M.Aminova kabi olimlar A.Qahhor, Oybek, Hamza kabi ijodkorlarning qo'lyozma matnlar ustida ishlash maqoratini maxsus tadqiq etdilar. Bunday muammo o'z vaqtida A.SHoamaqsudov (1971), Q.Samadov (1967-1981), I.Qo'chqartoev (1976) kabi olimlarning ishlarida ham o'rganilgan edi. Adabiyotshunos olim S.Meliev she'riy matnlarda so'zning badiiy funksiyasini maxsus tadqiq etdi. Jumladan olim kontekstda so'z dinamikasiga ochib berish uchun shoir H.SHaripovning «Baliq falsafasi» nomli she'rida «Dumingni likillatasan, olg'a ketasan» misrasining takrori yaxlit bir matnni, tugal she'riy matnni vujudga keltirganini uch yarusda tadqiq etadi amda shunday xulosaga keladi:

«Dumingni likillatasan olg'a ketasan» zamirida achchiq zaharhanda bor. U dumini likkilatib umr kechiruvchi kishilarning olg'a ketishiga to'sqinlik qilib ularni hajf zarbi bilan yanchib tashlaydi. Matnni og'ir o'qir ekansiz baliq inson tasavvuridan butunlay chiqib ketmaydi. Zero, lagan dardorning baliqqa o'xshash tomonlari ham yo'q emas. Baliqning so'vda sollanib siliq suzishi hayotning sermashaqat yo'llaridan ravon o'tib ketishga ruji qyaygan lagonbardor falsafasiga mos keladi. Mutlaq bir xil misra «Dumingni likillatasan olg'a

ketasan» ning takrorlanishi natijasida bu she'r tugal badiiy asar (poetik matn) qiyofasiga kiradi. So'zlarning aytish ohangida ham baliqning so'zishiyu itning dumingni likillatishini eslatadigan nimadir bor. Ana shu o'xshashlik laganbardor kimsalarning yashash falsafasini nafrat va zahar hangda o'tiga duchor qiladi.

Kontekst (matn)da so'z dinamikasi keng tushuncha. U faqat muayyan kontekst doirasi bilan cheklanmay, so'zning voqelik bilan «Oldi-berdi» sini ham o'ziga hamrab oladi. Demak, so'z dinamikasi turli kontekstli turlicha ko'rinishga ega bo'ladi. Keltirilgan she'r matnida baliqdan boshqa narsa yo'q. Ammo, «Dumingni likillatish» birikmasining harakat doirasi shunchalik kengki, u avval it keyin laganbardor odam qiyofasini kitobxon zehnda jonlantiradi. Har ikki holda ham harakatchang dinamik so'z va birikmalar yuksak badiiy kontekst (matn)ni vujudga keltiradi.

M.To'xsanov mikromatn va o'zbek badiiy nutqida uning kagerentligi ifodalovchi vositalar (so'z olmashtirish va takror) mavzuida nomzodlik ishini himoya qildi.X.Usmonov esa o'zbek badiiy matnlarida so'zlashuv nutqi xususiyatlarini maxsus tadqiq etdi. Prof.A.Mamajonov 1989 yilda «Tekst lingvistikasi» nomli o'quv qo'llanmasini tayyorlab, Farg'onada nashr ettirdi.

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab o'zbek olimlari matn tilshunosligining nazariy muammolari bilan shug'ullana boshladilar. Bu jihatdan B.O'rinboev, R.Qo'ng'urov, J.Lapasovlarning «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» nomli o'quv qo'llanmasi alohida ahamiyat kasb etadi. bu asarning «Kirish» qismi «Tekst-lingvistik tahlil ob'ekti» deb nomlanadi. Bunda matn tiplari, ularning umumiy va o'ziga xos belgilari, matnni lisoniy tahlil qilishning metodologik, matn yaratish muammolarini, ifoda vositalarining tanlanishi va ularning matn tuzilishidagi roli singari dolzarb masalalar o'zbek tili faktlari misolida voritilgan. SHundan keyin asarda YUsup Xos Hojib, Alisher Navoiy, gulxoniy, Miqimiy, Furqat, Xamza Xakimzoda Niyoziy, G'afur G'ulom, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Komil YAshin kabi shoir, yozuvchilar va dramaturrlarning she'riy, nasriy va dramatik asarlaridan matnlar kettirilib, ularni lisoniy jihatdan tahlil qilish namunalari berilgan. Bu asarda to'g'ri ta'kidlashicha, «umumiy tilshunoslikdagi nazariy asosida tekst

(matn)ning mohiyati, tuzilishi, mazmuni, fikrni yuzaga chiqarishdagi roli kabi qator masalalarni yoritish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir».

1994 yilda M.Nakimov «O'zbek ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Bu ishda o'zbek tilining ilmiy uslubi matn kategoriyasi aspektida o'rganilgan, gumanitar fanlarga oid ilmiy matn namunalari bu ish uchun faktik material manbai bo'lib xizmat qilgan.

«O'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi» (1997) mavzuidagi nomzodlik ishida tadqiqotchi N.Uluqov diniy matnlar tilshunoslikda o'ziga xos alohida matn turi sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiq, degan fikrni ekzotik leksika materiallari misolida asoslashga intiladi.

1997 yilda Toshkentda o'tkazilgan «O'zbek tili» anjumanining to'rtinchi yig'ini bevosita «ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari» mavzuidagi bag'ishlangan edi. Bu anjuman materiallari yirik to'plam sifatida nashr etilgan. Bu esa mamlakatimizda matn tilshunosligi yutuqlarining ta'lim jarayoniga tatbiq etilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1998 yilda SAMDUda «Maxsus matnlarning lingvistik talqini va chet tillarda muloqot qilishni faollashtirish» mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman o'tkazildi. Bunda Abxay Morye (Hindiston), Su Fan Zyi Xitoy), D.Loxer (SHvesariya), V.Reviskiy (Belarus), J.A.Kareneyeva (Qozoqiston) singari xorijlik olimlar hamda mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlaridan filolog mutaxassislar ishtirok etdilar hamda matn va uning lingvistik talqini bilan bog'liq bir qancha dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Prof. E.Qilichevning «Matnning lingvistik tahlili» (2000) nomli o'quv qo'llanmasida matnning ko'rinishlari va uni lisoniy tahlil qilish namunalari berilgan. Eng muhimi, ishda poretik va nasriy matnlarni shahrlab o'qish hamda tahlil qilish, matnni «lingvistik mikroskop ostida» o'rganish (fonetika, leksik, morfemik, morfologik, sintaktik tahlil usullari)ga oid mashq namunalari keltirilgan.

2000 yilda Samarqandda «matn va uning tahlili» mavzuida xalqaro ilmiy-nazariy konferentsiya o'tkazildi. Bu anjumanda matnning informativligi,

kogeziyasi, bo'linuvchanligi, retrospektiviyasi, ichki va tashqi derivativiyasi kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Ma'lumki, pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog'i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta'siri bilan namoyon qiluvchi nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarni o'rganadi. «Pragmatika tilshunoslik fanining yangi sohalaridan biri bo'lib, uning nazariy manbai CH.Pirs, U.Djems, D.Dyun, CH.Morris kabi taniqli faylasuf olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari bilan bog'liq. Ularning tadqiqotlarida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida belgilar sistemasi va lingvistik belgi funktsionalligi xususidagi g'oyalar o'rta tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaksis, semantika va pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatib beriladi». Lingvistik pragmatikaning o'zbek tilshunosligida shakllanishida M.Xakimovning tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, M.Xakimov yaqinda «O'zbek tilida matnning pragmatik talqini» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilidi va o'zbek filologiyasida matn tilshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shdi.

SHunday qilib o'zbek tilshunosligida matn muammolarini tadqiq etishda salmoqli yutuqlarga erishildi. Endigi vazifa ana shu yutuqlarni yanada mustahkamlash, matn tilshunosligi muammolariga doir monografik tadqiqotlar yaratish, matnning turlari, uning pragmatik imkoniyatlari kabi masalalarni keng miqyosda tadqiq etishdan iboratdir.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. «Matshunoslik», «matn» (tekst) atamalariga izoh bering.
2. Matn tilshunosligi taraqqi1tida Samarqandda o'tkazilgan ikki xalqaro konferentsiya (1998,2000), «O'zbek tili» doimiy anjumanning to'rtinchi yig'ilishi (1997) ning hissasini izohlab bering.
3. «Kontekstda so'z dinamikasi» tushunchasini izohlang va misollar keltiring.
4. O'zbek tilshunosligida matn va uning turlari tahlilida «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» (1990) asarining tutgan o'rni.

5. Matn va uning pragmatik xususiyatlari tahlilida. M.Xakimov tadqiqotlarining o'rni.
6. Matn va uning kogerentligi masalasini M.To'xsanov ishlariga tayangan holda izohlang.

ADABIYOTLAR:

1. Nojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati, T., O'qituvchi, 1985. 88-bet., Xojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T., 2002, 61 b.
2. Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T., O'qituvchi 1979.
3. Qo'chqortoyev I., Nizomxonov X. Badiiy asarning tekstual variantlari-lingvostilistik tadqiqot ob'ektlaridan biri// O'zbek tili va adabiyoti, 1983, 6-son.
4. Meliyev S. Kontekstda so'z dinamikasi // O'zbek tili va adabiyoti, 1983, 4-son, Miliev S. Xudojestvennaya funktsiya slova v stixotvornom kontekste (na materiale uzbekskoy sovetskiy poezii), Avtoref.dis.kand.filol.nauk.T., 1985.
5. Tuxsanov M. Mikrotekst i sistema sredstv vyrazeniya ego kogerentnosti v uzbekskoy xudojestvennoy rechi (zamena i povtor), Avtoref.dis.kan.filol.nauk.T., 1987.
6. O'rinboev B., Qo'ng'urov., lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili.T., O'qituvchi, 1990.
7. Hakimov M.X. O'zbek ilmiy matnnig sintagmatik va pragmatik xususiyatlari, NDA, T.. 1993.
8. Ulug'ov N.M. O'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi, NDA, T., 1997.
9. Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari («O'zbek tili» doimiy anjumani to'rtinchi yig'inining tezislari) T., 1997.
10. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. Buxoro, BuxDU nashri, 2000.

11. Matn va uning talqini (xalqaro ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari, Samarqand, 2000 yil). Samarqand SamDCHTI nashri, 2000.

12. Xakimov M.X. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini.

MURAKKAB SINTAKTIK QURILMA VA MATN MAQOMI

Tayan so'z va birikmalar: Pog'onali yoki iyerarxik munosabat, sintaktik faollik, sintagmatik qator, gorizontal chiziq, qo'shma gap komponentlari, katta butunlik, perid murakkab sintaktik qurilma, gapning voqelikka munosabati, predikativlik, predikativ belgilar majmuasi, mikromatn va makromatn.

Til birliklari o'z ichki tabiatiga ko'ra doim o'zidan katta birlik sathida sintaktik faollikka ega bo'ladi. Ayni paytda sintaktik fallik tushunchasini tilning eng kichik birligi bo'lgan fonemaga bevosita tegishli emas, albatta. Biroq fonemalarning o'zidan katta birlik doirasida gorizontal chiziq bo'ylab ma'lum tartibga rioya qilgan holda kelishi bu fikrning dalili bo'la oladi. Negaki, fonemalarning real, nutq jarayonida qo'llanilishi ham sintagmatik qator sathida ro'y beradi.

SHunday qilib, fonema morfema yoki so'z sathida, morfema so'z sathida, so'z gap qolipida, gap esa matn doirasida nutqiy faollikka ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, hozircha qo'llanilib kelgan "qo'shma gap" terminining izohtalab ekanidan dalolat beradi. Gap shundaki, qo'shma gap deyilganda gapning gap ichida sintaktik faollik olayotgani anglashiladi. Bu, albatta, til birliklarining pog'onali, ya'ni iyerarxik munosabati qoidasining qo'pol ravishda buzilishiga olib keladi.

Masalaning bu taxlitda hal etib kelinayotgan noto'g'ri ekanligi o'tmishda ham ba'zi tilshunoslarni qoniqtirmagan edi va hozir ham bu haqda ayrim mulohazalar bildirilmoqda. Agar bundan ko'p yillar avval A.M.Peshkovskiy qo'shma gap bir necha gapni bir gap deb atagani uchun ham turli anglashmovchiliklar kelib chiqishini, M.N.Peterson esa tilda gaplarning ergash bog'lanishini ham, teng bog'lanishini ham to'liq inkor etishi va ikki gapning

o'zaro semantikg'sintaktik aloqasi matnni shakllantirishiga olib kelishini alohida ta'kidlagan bo'lsalar, hozirgi tilshunoslarimiz bunday mulohazalarni yanada to'liqroq asoslamodalar. Masalan, M.V.Lyapov bu haqda shunday yozgan edi: "Qushma gap ikki yoki undan ortiq nisbiy tugallangan (kommunikativ ma'noli) xabar parchalarini tashkil etuvchi gaplarning o'zaro ongli ravishdagi birikuvi natijasini taqozo etar ekan, uning strukturasida matnga xos jiddiy belgilar mavjudligidan kelib chiqmoqchimiz va buni e'tirof etmog'imiz lozim".

Bunday fikr va muloxazalar keyingi yillar ichida nashr etilgan ba'zi o'zbek tilshunoslarining ishlarida ham aytilmoqda. Masalan, quyidagi muloxazalar buning yorqin dalili bo'la oladi: "Tilshunoslikda azaldan qo'llanilib kelinayotgan "qo'shma gap" terminini maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Chunki qo'shma gap deganimizda, birinchidan, gaplarning qo'shilayotganini (birikayotganini) tushunchak, ikkinchidan, yangi murakkab tuzilishli qurilmaning hosil qilinishini ham anglaymiz. Bunday murakkab qurilma matn tushunchasi bilan tenglashadi".

Aytish lozimki, rus tilshunosligida "qo'shma gap" ("slojnoe predlojenie") terminidan tashqari "murakkab sintaktik butunlik" ("sloj.sintaksicheskoe seloe") atamasidan xam foydalanib kelinmoqda. Bizningcha, mazkur atamalarning keyingisi maqsadga birmuncha yaqinroqdir. Chunki bu terminning qo'llanilishi "qushma gap" atamasidan chetlanish maqsadi bilan bog'liqligi shubxasizdir. Bundan tashqari, rus tilshunosligida gapdan yuqori bunday til birliklarini ifodalash uchun "sverxfrazovoe edinstvo" ("frazadan yuqori butunlik") termini ham ishlatiladi. Bunda ham bir necha gap yaxlit sintaktik butunlik tarzida izohlanadi.

Bundan ko'rinadiki, "qushma gap" terminidan tashqari qo'llanilayotgan barcha atamalar qo'shma gapda matn ifodasi borligi masalasi bilan uzviy bog'liqdir. Bunday xarakterdagi bir necha gapning qo'shilishidan tashkil topgan sintaktik butunliklarning yana birini rus tilshunosligida period deb atashadi. Periodning tarkibida sodda ham, qo'shma gaplar qatnashishi mumkin. O'zbek tilshunosligida ham o'tgan asrning 70 yillaridan boshlab period atamasidan

foydalanilmoqda. Jumladan, akad. G'.Abdurahmonov periodga quyidagicha ta'rif beradi: "murakkab sostavli gaplarga ma'lum bir mazmun munosbaati ifodalangani, intonatsion tugallik bo'lgani uchun, bu xil konstruksiyalar o'ziga xos sifatga ega bo'ladi va ular period deb nomlanadi... Period tuzilishi, intonatsiyasi, mazmuniga ko'ra yaxlit bir butunlikni tashkil etadi, bu xil butunliklar sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin: agar ular bir xil, bir tipdagi gaplardan tuzilsa (masalan bir necha ergash gapli qo'shma gaplar, bir necha sodda gaplardan tuzilgan bog'langan yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar va hokazo), soddaperiod deyiladi, agar bu butunlik turli xil gaplardan tuzilsa (masalan, ergash gapli qo'shma gap va bog'lovchisiz qo'shma gap birikmasi kabi), murakkabperiod deyiladi". O'zbek tili sintaktik qurilishidagi period hodisasini maxsus o'rgangan. A.Mamajonov murakkab sintaktik butunliklarning bir turini parataktikg'ipotaktik aloqali periodlar deb nomlagan hamda ularning struktural-sintaktik xususiyatlarini tadqiq etgan edi. Bunday murakkab sintaktik qo'rilmali periodlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Ta'kidlash kerakk, period shaklan "frazadan yuqori butunlik", ya'ni jumla yoki gapdan katta birlikdan qariyb farqlamaydi. Zotan "frazadan yuqori butunlik" ham gaplar majmuasidan tashkil topadi va bunda har bir gap ikkinchisi bilan mazmuniga ko'ra bog'langan bo'ladi.

Bizningcha, terminlar sonini ko'paytirish orqali gapdan yuqori lisoniy birliklar tabiatini ochishda salmoqli yutuqlarga erishish qiyin. Bir necha gaplarning, shu jumladan murakkab sintaktik qurilmalarning birikuvidan tashkil topgan butunlikni bir yo'la matn deb, agar u matn ichida berilgan bo'lsa, matn komponenti deb atash maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Bunday mulohazani XVIIIasr frantsuz tilshunosi E.Kondalyak ham bildirgan edi. Uning fikriga ko'ra, mantiqiy jixatdan bog'liq bo'lgan bir necha gapning birikuvi pirovard natijada matn shaklini vujudga keltiradi. SHunisi xarakterliki, E.Kondalyak bunday murakkab butunlikni biror atama bilan nomlamaydi.

SHunday qilib, ikki va undan ortiq gaplarning o'zaro semantik va sintaktik jihatdan bolg'lanishidan tashkil topgan butunlikni murakkab sintaktik qurilma deb atash til birliklarining pog'onali munosabati qonunyatiga mos

keladi, degan fikrdamiz Bunda qo'shma gapning teng bog'lanishli va ergash bog'lanishli har ikki turi ham mazmunan to'liq saqlanadi:

1. To'rt yil mehnatdan uzilmagan qo'llarga uzuk yarashmagandek, bilaguzuklar birovnikidek erish tuyuladi. Ipak paypoq boldirlaridan sidirilib tushib ketayotgandek. Tuflining baland poshnasi hali u yoqqa, xali buyoqqa qiyshayib ketadi. Arqonda yurgan darvozbek yo'lni mo'ljalga olib qadam bosishadi (Said Ahmad. Ufq).

2. Odamlarga hayronmanYU yil g' o'n ikki oy qorasini ko'rsatmay butun paydo bo'lib qoldi. Er shiring'da, er (Said Ahmad. Ufq).

3. Maxkam aka ko'lib qaragan edi, bolaga yoqdi shekili, lunjida noni bilan u ham kulib quydi (R.Fayziy. Hazrati inson).

4. Qo'y, qizim, qo'y. Bu kunlar ham o'tib ketar. SHundoq bo'lishini bilgan edim. Ammo ering urush ko'rdi, mussofirchilik ko'rdi, yo'lini tortib olgandir, deb o'ylagan edim. Bo'lmaptig'da (Said Ahmad. Ufq).

Keltirilgan misollarda komponentlari teng bog'lanayotgan murakkab sintaktik qurilmalar mavjud. Komponentlari teng bog'lanayotgan murakkab sintaktik qurilmalarda ikki-uchtadan mustaqil predikativ markaz mavjud bo'lib, ularning har biri orqali tasvirlanayotgan voqelikka alohida ahamiyatga ega bo'lgan munosabat bildirilmoqda. Buning aossiy boisi har ikki komponent ham o'zicha mustaqil holda tub strukturaga ega ekanligidadir. Oxirgi misolda esa matn tarkibida to'rtta predikativ markaz ishtirok etmoqda.

Ayni paytda tub struktura deyilganda, gapning sintaktik jihatdan shakllanishi uchun asos bo'layotgan strukturani tushuniladi. Boshqacha aytganda, tub strukturag'bu katta sintaktik strukturaning vujudga kelishi uchun poydevor (asos

Vazifasini bajaruvchi semantik strukturadir. Bunday struktura mavxumlik belgisi bilan xarakterlanadi. Zotan, unda sintaktik strukturada to'ldirilishi lozim bo'lgan bo'sh o'rinlar kuzatiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan birinchi murakkab o'xshatishli sintaktik qurilmaning uch komponentining tub strukturalari birovpikidek, tuzib ketayotgandek, darvozdek so'zlari orqali ifodalangan.

Ergash bog'lanishli komponentlar munosabatiga asoslangan murakkab sintaktik qurilmalar tarkibiy qismlarining biri (keltirilgan uchinchi misol xabar ifodasida muhim rol o'ynaydi. SHuning uchun bu komponent o'ziga ergashib kleayotgan ikkinchi komponentga nisbatan semantik jixatdan ham, sintaktik jixatdan ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, murakkab sintaktik qurilmani yagona tub struktura asosida shakllanishga olib keladi. Tobe komponent ham ma'lum bir tub strukturaga asoslansag'da, bu struktura matnning sintaktik jixatdan shakllanishida ikkinchi darajali ahamiyat kas etadi. Qiyoslang:...yoqdi shekilli ---kulib quydi.

YUqoridagilardan tashqari, murakkab sintaktik qurilma teng yoki ergash bog'lanishli komponentlar munosabatining qaysi birini taqozo etishidan qat'iy nazar, unda ustpredikativlik belgisi bo'ladi. Boshqacha aytganda, mazkur qurilma komponentlarining alohida predikativlik belgilari asosida mazkur tikromatnning umumiy predikativlik belgisi yuzaga keladi. Buni murakkab sintaktik qurilmaning voqelikka bildirayotgan munosabati orqali izohlash mumkin. Darhaqiqat, murakkab sintaktik qurilmada voqelikka bildirayotgan munosabat yaxlitlashgan holda ko'zga tashlanadi: SHaharga keltirib tiklangan o'nlab ulkan korxonalarining har birida mingg'minglab odamlar ishlaydig'yu, biroq ular nima yasab chiqaradi, buni hech kim bilmasdi (R.Fayziy. Hzrati inson).

Murakkab sintaktik qurilma komponentlarining har biri nisbiy xabar ifodasini berishga qodir ekan, bunday qurilmalarni matn xarakteriga ega deyish mumkin. SHuning uchun ularni mikromatn tarzida, ya'ni kichik matn tarzida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Til birliklarining pog'onali munosabati deganda nimani tushunasiz?
2. Pog'onali munosabat til birliklarining barchasiga xosmi?
3. Gap ikkinchi bir gap sathida sintaktik faollik olishi mumkinmi?
4. "Qo'shma gap" terminiga sizning munosabatingiz qanday?
5. Qaysi tilshunoslikda "qo'shma gap" temasiga nisbatan boshqacha qarashlar seziladi?

6. Qo'shma gaplarda matnga xos belgilar mavjudligini qanday dalillash mumkin?
7. Rus tilshunosligida "qo'shma gap" terminidan boshqa yana qanday atamalar qo'llaniladi va buning sababi nimada deb o'ylaysiz?
8. Murakkab sintaktik qurilma nimani taqozo etadi?
9. Murakkab sintaktik qurilma komponentlarida predikativlik belgisi qanday bo'ladi?
10. Murakkab sintaktik qurilmalarda ustpredikativlik belgisi qachon va qanday shakllanadi?
11. Mikromatn deganda nimani tushunasiz?

ADABIYOTLAR:

1. Peshkovskiy A.M. Russkiy sintaksis v nauchnom osveo'enii. M., 1956.
2. Peterson M.N. ocherk sintaksisa russkogo yazqka. M., 1923.
3. Lyapon M.V. Smqslovaya struktura slojnogo perdlojeniya i tekst. M., Nauka, 1983.
4. Turniyazov N., Turniyazova K. Funktsional sintaksisga kirish. T., Fan, 2003.
5. Abdurahmonov G'., Sulaymanov A., Xoliyorov N., Omonturdiev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili (sintaksis), T., O'qituvchi, 1979.
6. Mamajanov A. Parataktik-gipotaktik aloqali periodlar O'zbek tili va adabiyoti, 1974, 2-son.
7. Pumpyanskiy A.L. Informatsionnaya rol poryatka slov v nauchnoy texnicheskoy literature. – M.: nauka, 1974.
8. Katsnelson S.D. Obo'ee i tipologicheskoe yazikoznanie. – L.: Nauka 1986.
9. Turniyazov V. Teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasiga doir O'zbek tili va adabiyoti, 2002, 1-son.
10. Referovskaya E.A. Lingvisticheskie issledovanieya strukturi teksta. – L.: Nauka, 1983

MIKRO VA MAKROMATN MUNOSABATI

MIKRO VA MAKROSISTEMA

Tayan so'z va birikmalar: So'zlovchi nutq muhiti makon, zavon, akssado, bilish nazariyasi, temp, urg'u, ohang, ton, jast, minika, gavdo harakati, ongda mavjud mavzuga oid qolib pog'onali munosabat.

Matn lingvistikasi masalalari bevosita progmatika tushunchasi bilan bog'liqdir, zaton, matn, lingvistik qonun qoidalardan tashqari, pragmatik vositalarning ahamiyati katta ekanligi izoh talab qilmaydi. Chunki matn shakllanishida so'zlovchining haqi shi, nutq muhiti, tinglovchining xabarga ilokutiv (aks sado beruvchi) munosabati, xabar mazmunning makon va zamonga munosabati kabi ko'plab nolingvistik omillar matn shakllanishiga kishi ta'sir ko'rsatadi. Fikr sifati uchun Amsterdant universitetining professori T.A.van Deykning quyidagi misolini keltiramiz:

I ll come tomorrow! – Ya pridu zavtra! Men ertaga kelaman.

Keltirilgan gapning qanday ma'no kasb etishi so'zlovchining hoqishiga bog'liq bo'lib, bu jumla orqali u vada, pupsa, e'lon va hokazo ma'no ifodalarni berishi mumkin. Bunda jumlaning illokutiv kuchi, shubhasiz, kommunikativ jarayonning xarakteri orqali belgilanadi.

Prof.T.A Deykning kommunikativlik muhit bilan tilning o'zaro munosabtida kognitiv (bilish) nazariyaning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, bu nazariya tilning real qo'llanilishini ta'minlovchi asosiy komponentlardan biri hisoblanadi. Bunda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Jumladan grammatik strukturasi tabiati.
2. Nutq tempi, urg'u, ohang, tonning balantligi hamda jest, mimika, gavdaning harakati kabi qator paralingvistik omillar.
3. Kommunikativ muhitga munosabat bunda e'tiborga molik bo'lgan ob'ektlar, kishilar va hokazo omillar nazarda tutiladi.
4. So'zlovchi to'g'risida xotirada bo'lgan fikrlar hamda kommunikativ muhit ustidagi tasavvur.

5. Nutq so'zlanayotgan paytdan oldin sodir bo'lgan diskurs (muloqot).
6. Pragmatik muhit haqidagi umumiy tasavvuf;
7. Voqelik (freymlar voqealik komponentlar to'g'risidagi ongimizda mavjud qoliplar) haqida bilimlarning umumiy xarakteri.

Ko'rinadiki, yuqorida keltirilganlarning barchasi pragmatik qurchov omillari sanaladi va ular pragmatik voqelikning vujudga kelishida asosiy komponentlar hisoblanadi. SHuning uchun matn mavzusi ham ana shular bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, mavzu jixatidan matn imkoniyatlari cheksizdir. Bunda insonning so'zlashuv tajribasida yillar davomida ko'nikmalarga aylanib ketgan freymlardan foydalaniladi. Masalan, temir yo'l vokzali va u bilan bog'liq bo'lgan ongimizdagi qolip (freym) quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: temir yo'l, poezd, chipta, yo'lovchi, kassa, vokzal, kanduktor, perrom, paravoz, teplavoz, elektrovoz va h. SHu muhit bilan bog'liq matn ham mashhur leksik unsurlar qurshovida bo'ladi:

May I see your ticket, please? - Mojno posmotret vash bilet? Biletingizni ko'rsam bo'ladimi? Albatta, har birimizning ongimizda turli mavzularni taqozo etuvchi freymlar mavjuddir. Masalan, "Oliy ta'lim" mavzusi freymi quyidagi leksik unsurlarni taqozo etishi mumkin: Universitet, institut, ta'lim vazirligi, rektorat, dekanat, kafedra, professor, dotsent, aspirant va b.

Eslatib o'tilgan pragmatik vositalar va freymlar matnning har qanday turi uchun xarakterlidir. Biroq freymlar imkoniyatlari mikromatndan ko'ra makromatnlarda o'z ifodasin ko'proq topa oladi. Mikromatnlarning, albatta, bu jihatdan makromatnlarga qaraganda imkoniyat ko'lamini cheklangandur. Masalan, bir so'zli yoki so'z birikmasi tarzli matnlarda freym komponentlarning biri yoki ikki uchasi qatnasha oladi, xolos. SHuning uchun quyida mikromatn deganda o'ta kichik matnlarga emas, balki murakkab sintaktik qurilmalar talqiniga e'tiborimizni qaratamiz. Zotan, murakkab sintaktik qurilma makromatnning o'ziga xos ma'lum bir parchasini taqozo etadi.

Murakkab sintaktik qurilma matn maqomiga egadidir, chunki u ikki yoki undan ortiq semantik va sentaktik faollashuvi uchun ob'ekt hisoblanadi:

Bobo Xusaynbek hozir Hirotda o'ltirib, Hoji Muhammad, Husravdan eshitganlarini o'zi ko'rgan bilgan voqealar bilan to'ldirib, birma bir aytib berar ekan, Gavhor SHod begimning ko'zi oldida o'g'li Ulug'bekning oxirgi kunlari, so'nggi daqiqalari fojiaviy afsilotlarga to'lib gavdalandi. (P.Qodirov. Ona lochin vidosi).

Mazkur mikromatn pragmatik nuqtai nazardan "Ulug'bek fojiasi" freym bilan bog'lanadi, albatta. SHu bois matnning semantik markazida Ulug'bek va u haqidagi tavsilotlar turganini ko'ramiz.

Berilgan mikromatn semantik va sintaktik jihatdan ikki gapning o'zaro munosabatga kirishuvini taqozo etib, bunday ekan to'liqsiz fe'li muhim vazifa bajarmoqda va bu jihatdan uning pragmatik vazifasi ham ko'zga tashlanadi.

YUqoridagilardan tashqari, ekan to'liqsiz fe'li funktsional nuqtai nazardan xam eng muhim unsur sanaladi, chunki mazkur vosita ta'sirida murakkab sintaktik qurilma hamda uning tarkibiy qismlari funktsional faollikka erishmoqda. SHuning uchun M.I.CHeremisina murakkab sintaktik qurilma (CHerimisinada qo'shma gap) sathidagi bu singari unsurlarni sodda gaplarda kesim vazifasida keladigan so'z bilan qiyoslaydi.

Murakkab sintaktik qurilma qolipdagi mikromatn komponentlarning semantik munosbaatlari ham sintaktik alohasi aniq ko'zga tashlanadi. Biroq makromatn komponentlarning sintaktik munosabatlarini talqin etish bir muncha qiyinroq kechadi. Quyida ana shu xususda fikr bildiramiz.

Aytish lozimki, murakkab sintaktik qurilma qolpidagi mikromat makromatnning tarkibiy qismi bo'lib keladi. Albatta, makromatn tarkibiy qismi vazifasida, bunnan tashqari, gap, abzats, bob kabilar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularning har biri o'z vazifasi va shakli bilan bir-biri bilan farqlanadi. Aniqroq qilib aytganda, gap murakkab sintaktik qurilma, abzats, bob va makromatnning, murakkab sintaktik qurilma abzats, bob yoki makromatnning, abzats, bob xamda makromatnning, bob esa makromatnning komponenti vazifasida keladi.

Ko'rinadiki, mazkur matn turlarining barchasi bir-biriga nisbatan pog'onali munosabat tashkil etadi. SHu sababli ularning keyingisi oldingisiga

nisbatan makromatn mavqeida bo'ladi. Fikr isboti uchun quyida misollar keltiramiz.

1. Ahmad yasovulboshi darvoza devori ustiga chiqqanda, unga eng kuchli yoydan o'q otadigan merganni pana joyga poylovchi qilib qo'ydi (P.Qodirov) - murakkab sintaktik qurilma.

2. Mamarayim afandi yana ko'chaga karab pildiradi. Ammo besh qadam bosmay, Davron o'zi charoqlab kirib keldi. Teshaboy endi unga zahar sochdi (M.Ismoilijoy) - abzats.

3. Guljahon mehmon borligini ham payqamagan edi. Sarvi xola imo bilan ovsinini ko'rsatdi.

Qaynona-kelin o'rtasidagi kishining havasini keltiradigan inoqlik, mehr-muhabbat Risolat xolaning qalbini jizillatib o'tdi (R.Fayziy) – makromatn.

Matnning barcha turlari komponentlarini ham semantik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ammo ba'zi paytlarda semantik aloqa yashirin holatda kelishi ham mumkin. Bunday vaziyatda pragmatik omillarning mavqei yanada oshadi. Bunga yuqorida keltirilgan uchinchi misol dalil bo'lishi mumkin. Ayni paytda makromatn ikki abzatsdan tashkil topayotganini kuzatamiz. Birok mazkur abzatslar o'rtasida semantik munosabat aniq ko'zga tashlanmaydi, chunki ikkinchi abzatsda berilayotgan qaynona-kelin o'rtasidagi inoqlik xususidagi xabar birinchi abzatsda biror yo'sinda eslatilmiagan. Bunda pragmatik omil ikki abzatsni o'zaro bog'lamoqda.

Ba'zi makromatnlarda abzatslar o'rtasida uzviy semantik aloqa ham, sintaktik munosabat ham to'liq shakllangan bo'ladi. Bunday abzatslarning ikkinchisi birinchisining mazmuniy davomini taqozo etadi.

SHunday qilib, matn komponentlarining o'zaro munosabati xar doim uzviy bo'linishi va ularning turlarini ko'rib o'tdik. Bu o'rinda yana shuni ham alohida ta'kidlash joizki, matnning xar qanday turida ham biz til sistemasi unsurlarining nutqqa ko'chirilishini kuzatamiz. Boshqacha aytganda, til sistemasi unsurlari nutqiy faollikka erishgandagina real ma'no ifodasini topadi. Tilda-chi? Tilda ular mavhum va ko'p ma'noli ko'rinishda bo'ladi. Bu haqda

birinchi ma'ruza matnida mukammal ma'lumot berilgan edi. Ayni paytda esa mikro va makrosistema xususida ba'zi mulohazalarimizni bildirmoqchimiz.

YUqorida mikro va makromatn haqida keltirilgan edi. Til sistemasi va uning amalga real qo'llanilishi masalasi ham ana shu tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir, zotan, matn bir so'zli yoki, umuman, kichik hajmli bo'lsa (masalan, qo'shma so'zni taqozo etsa), bunday vaziyatda makrosistemahaqida so'z yuritib bo'lmaydi, albatta. Chunki mikromatn komponentlari sanoqli bo'lgani uchun unda til sistemasining unsurlari ham son jixatdan chegaralangan bo'ladi. Fikr isboti uchun quyidagi matnlar tahliliga murojaat etaylik:

O'qituvchi. Maktabimiz bog'i.

Ayni paytda berilgan bir so'zli matn tilining real voqelangan mikrosistemasini taqozo etmoqda. Buni quyidagicha talqin etish mumkin: o'qitilning birinchi belgisi, ikkinchi belgisi, -uv-uchinchi va -chi-to'rtinchi belgi.

Ko'rinadiki, tilimiz belgilar yig'indisidan tashkil topgan murakkab sistemani takozo etar ekan, o'qituvchi so'zi orqali ifodalangan mikromatn ham tilning to'rt belgisining sintagmatik qatordagi munosabatidan shakllanganligi izoh talab qilmaydi. Qiziqi shundaki, bunda o'qituvchi so'zining o'zi ham belgilar munosabatidan tashkil topgan murakkab belgidir. Demak, keltirilgan mikromatnda tilimiz mikrosistema tarzida voqelanmoqda. SHunday bo'lgach, mazkur matnni til sistemasi belgilarining o'zaro munosabatidan tashkil topgan struktura tarzida ham talqin eta olamiz.

Keltirilgan misollarning ikkinchisida esa, garchi u ham tilning mikrosistema tarzida voqelanishini taqozo etsa ham, so'z qolipidagi belgilarning o'zaro munosabatini kuzatamiz. Bunday vaziyatda har bir so'z birinchi galda mikrosistemani taqozo etadi: Maktab-i-miz//bog'-i. So'zlarning o'zaro munosabatidan, albatta, nisbatan kattaroq ko'p belgili sistema vujudga keladi. Bu o'rinda maktabimiz bog'i birikmasi qolipida o'zining tarkibiy qismlari sistemalariga nisbatan makrosistemani ifoda etadi. SHu bois mazkur strukturasini ham o'zgacha talqin etishga to'g'ri keladi. Boshqacha aytganda, ayni paytda ikki mikrosistemasining (maktab-i-miz va bog'-i) o'zaro munosabatlaridan matn strukturasini shakllanmoqda.

Aytish lozimki, mikro va makrosistema munosabati ham pog'onali xarakterga ega. Chunki mikrosistemalarni birlashtiruvchi har qanday struktura asosida makrosistema yotadi va aksincha makrosistemaning tarkibiy qismi sanaluvchi har qanday struktura mikrosistemani takozo etadi. Bunday iyerarxik munosabat matnning so'z-so'z birikmasi-gap-murakkab sintaktik qurilma-abzats-bobmakromatn singari barcha turlari doirasida doimiy xarakter kasb etadi. Fikr dalili uchun quyidagi misolga murojaat etaylik:

II parle. Longuement. Quand on entre,ils sont deja Ia.A leur table d'ecolier.

Berilgan matn makrosistema tarzida beshta mikrosistema munosabatidan tashkil topganligini ko'ramiz. Mikrosistemalarning ham ikkinchisidan boshqa barchasi, o'z navbatida, tarkibiy qismlari uchun makrosistema mavqeida kelmoqda.

Mazkur qonuniyat matn va uning komponentlari o'rtasida doimiy kuchga egadir. Masalan, abzats bobga nisbatan sistema ichidagi mikrosistemani takozo etsa, bob katta matnga nisbatan shunday sistemani tashkil etadi.

MAVZU YUZASI DAN SAVOLLAR:

1. "Pragmatika" tushunchasini izohlab bering.
2. Xabarning illokutiv kuchi nimadan iborat?
3. Kognitiv nazariya tilning real qo'llanishida qanday ahamiyat kasb etadi?
4. Pragmatik omillarning qaysilarini bilasiz?
5. Freym deganda nimani tushunasiz?
6. Mikromatn matnning qanday turlarini taqozo etadi?
7. Murakkab sintaktik qurilmani matn maqomida talqin etish mumkinmi?
8. Makromatn bilan mikromatnlarning ifoda shakllariga ko'ra munosabatlarini qanday izohlash mumkin?
9. Murakkab sintaktik qurilma tarkibidagi qaysi bir unsun sodda gap kesimi mavqei bilan tenglashtirilishi mumkin?
10. "Mikrosistema" tushunchasini izohlab bera olasizmi?

11. Mikro va makromatn hamda sistemalar o'rtasidagi mushtarak xarakterli pog'onali munosbaatni sharqlab bera olasizmi?
12. Sistema ichidagi sistema haqidagi tushunchani qanday izohlaysiz?

ADABIYOTLAR:

1. Deyk T.A. van. YAzqk. Poznanie. Kommunikatsiya. M., Progress, 1989.
2. CHeremisina M.I. Nekotorqe voprosq teorii slojnogo predlojeniya. Novosibirsk: Nauka, 1979.
3. Solntsev V.M. YAzqk kak sistemnog'strukturnoe obrazovanie. M., Nauka, 1971.
4. Melchuk I.A. Opqt teorii lingvisticheskix modeley "Smysl tekst". M., Nauka, 1974.
5. Obshenie. Tekst. Vyskazyvnie. M., Nauka.1989.
6. Benvenie E. Obshaya lingvistika. M., Progress, 1974.
7. Sintaksis teksta (sbornik nauchnyx rabot). M., Nauka, 1979.
8. Turniyazov N. Matn va uning lingvistik tahlili haqida// "Xorijiy filologiya" jurnali, Samarkand, SamDCHTI nashri, 2003, 1 son.

MATN KOMPONENTLARINING SINTAKTIK ALOQASINI TA'MINLOVCHI LEKSIK VOSITALAR

Tayan so'z va birikmalar: Muayyan bir yoki ikki so'zning matn komponentlarida takrorlanishi, so'z ma'nosining bevosita yoki bilvosita ko'chishi bir so'z ma'nosi ikkinchi so'zda ifodalanishi, substitur, o'rinbosar, so'zlovchining yoki matn muallifining o'z fikriga munosabati, ikki abzxatstning ma'nosiga va sintaktik munosabatiga ko'ra aloqasi.

Ma'lumki, matn lingvistikasiga bag'ishlangan ishlarning aksariyatida matn komponentlarining semantik aloqasiga asosiy e'tibor qaratiladi. Matnning bog'lanishli nutq mahsuli ekanligi ham ana shu asosda talqin etiladi. Biroq matnning sintaktik tabiati haqida juda kam ma'lumot keltiriladi. Bizningcha, matn komponentlarining sintaktik jihatdan ham bog'lanishli ekanligini mukammal talqin etish uchun vaqt keldi, zotan, matn faqat semantik jihatdan emas, balki sintaktik jihatdan ham yaxlitlikni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, matn komponentlari qanday yo'sinda bo'lmasin sintaktik jihatdan ham o'zaro bog'langan bo'ladi.

Matn komponentlarining o'zaro sintaktik bog'lanishi, asosan, quyidagi vositalar orqali ro'y beradi: 1. leksik takror. 2. Sinonimik munosabat. 3. Olmoshlar. 4. Kirish so'z va birikmalar. 5. Bog'lovchilar.

Quyida ana shularning har biriga alohida to'xtalamiz.

Matn komponentlarining sintaktik aloqasi leksik takrorga asoslanganda, ma'lum bir so'z ularning ikki yoki bir nechtasida takroriy qo'llanadi:

Mana bugun, Nizomjon yana Dildor bilan uchrashdi. Nizomjon yig'ilib qolgan gaplarini entikib, shoshilib gapirar, Dildor bo'lsa beporvogina uning gaplariga quloq solib borar edi. Umuman, Dildor keyingi paytlarda sal boshqacharoq bo'lib qolgan edi. Nizomjonni ko'rganda bir kizarib olardi-da, pildirab qochib ketardi (S.Ahmad. Ufq).

Keltirilgan matnda Nizomjon va Dildor so'zlariga e'tibor bersak, ularning turli sintaktik vazifalarda kelib, matnkomponentlarining o'zaro sintaktik munosabatini ta'minlanayotganini ko'ramiz. Birinchi gapda Nizomjon ega, Dildor to'ldiruvchi, ikkinchi komponent-murakkab sintaktik qurilmada esa

Nizomjon va dildor so'zlarining har ikkilasi xam ega vazifasida kelmoqda. Uchinchi gapda Dildor ega vazifasida, to'rtinchi gapda esa Nizomjon so'zi to'ldiruvchi bo'lib kelmoqda. Bundan tashqari, mazkur matnda gaplari so'zi ham takroriy qo'llanilib, bir o'rinda vositasiz, ikkinchi o'rinda esa vositali to'ldiruvchi bo'lib kelayotganini kuzatamiz.

Matn komponentlarining sintaktik munosabati sinonimik so'zlar vositasida voqelanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda bir komponentning sathida kelayotgan ma'lum bir so'zning ikkinchi, uchinchi va h.k. komponentlarda sinonimlari yoki sinonimik ma'noli unsurlar qatnashadi va ular orqali matn komponentlarining sintaktik munosabatlari shakllanadi:

Qish sovuqlari ham Gavharshodvegimning hayotidan uzoqlashib ketdi. Ulug'bek... ikki qavatli ko'shkda onasi sharafiga katta qabul marosimi o'tkazdi. Marosimda gavharshodvegimning barcha kelinlari shaxarning aslzoda ayollari ham ishtirok etdilar. Ziyofatdan so'ng hammalariga sarupolar ulashildi. (P.Qodirov. ona lochin vidosi).

Keltirilgan matnda sinonimik ma'noli quyidagi so'zlar mavjudligini ko'ramiz: Gavharshod begim - ona (si), qabul marosimi - ziyofat, kelinlar (i), aslzoda ayollar - hammalari (ga), barcha-hamma.

Ayni paytda matn komponentlarining soni (gaplarning) to'rtta bo'lib sinonimik ma'noli so'zlar ularning barchasiga qatnashmoqda va komponentlar sintaktik aloqasini ta'minlamoqda. Birinchi va ikkinchi gaplarning sintaktik munosabati aniqlovchi vazifasida kelayotgan Gavharshodvegimning, onasi (ning) so'zlari orqali, uchinchi va to'rtinchi gaplarga birinchisi ega, ikkinchisi esa to'ldiruvchi vazifalarda kelayotgan kelinlar, aslzoda ayollar va hammalari so'zlari vositasida shakllanmoqda. Bundan tashqari, ikkinchi gap uchinchi gap bilan leksik takror (marosim-marosim) orqali to'rtinchi gap bilan esa (qabul marosim-ziyofat) vositasiz va vositali to'ldiruvchi vazifalarida kelayotgan sinonimik unsurlar yordamida munosabat bog'lanmoqda. Va nihoyat, uchinchi, to'rtinchi gaplarda katnashayotgan barcha, hammasi so'zlari mazkur gaplar o'rtasida aniqlovchi-to'ldiruvchi vazifalarida sintaktik aloqa o'rnatish uchun xizmat qilmoqda.

Matnning tarkibiy qismlari o'rtasida sintaktik aloqa shakllanishi uchun olmoshlarning ham ahamiyati juda kattadir. Bunda olmoshlarning ot, sifat, son, ravish kabi mustaqil so'zlar o'rnida qo'llanila olishi muhim mavqega ega bo'ladi. SHuning uchun biz ularni substitut vosita sifatida talqin etamiz.

Olmoshlar prof. A.N. Gvozdev ta'kidlaganidek, son jihatdan uncha ko'p bo'lmasa ham, nutqda nihoyatda katta mavqega egadir. Ular o'zlarining qo'llanish darajasiga ko'ra boshqa so'z turkumlariga qaraganda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Nemis olimi Xarveg esa olmoshlarni nutqning bog'lovchilari tarzida talqin etadi. Bunday fikrni rus olimi T.I.Silmada ham uchratamiz.

Mehmonlar og'i r sukunatdan qorong'i xonaqohga bitta-bitta kirdilar. Barcha o'zini go'yo payg'ambar qabri oldida his etardi. O'rtadagi toshni navbat bilan bir-bir o'pib, ho'ng-ho'ng yig'ladilar.

Gumbaz ustidagi kabutarlar ovozi ularga do'yo samodan kelgan paygambar ovozi kabi tuyulardi (Oybek. Ulug' yo'l).

Berilgan matn to'rt komponentli bo'lib, birinchi va ikkinchi gaplar barcha jamlovchi olmoshi vositasida, ikkinchi va uchinchi gaplar implisit ifodali ular, uchinchi va to'rtinchi gaplar esa ularga olmoshlari bilan sintaktik aloqada ekanligini ko'ramiz. Mazkur olmoshlarning barchasi mehmonlar so'zining substitutlari sifatida kelib barcha-ega, yashirin holda kelayotgan ular ham ega, ularga olmoshi esa vositali to'ldiruvchi funktsiyalarini bajarmoqda.

SHuni ham alohida ta'kidlash lozimki, matn tarkibida qo'llanilgan olmosh faqat sintaktik vazifa emas, balki semantik vazifa ham bajaradi. Keltirilgan matnda gaplarning mazmuniy bog'lanishi ham aniq va bir o'rinda implisit (noaniq, yashirin) ifodali olmoshlar zimmasiga tushayotganini ko'ramiz. SHuning uchun olmoshlar matn mazmuniy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy morfologik vositalardan hisoblanadi.

Matn komponentlarining sintaktik aloqasi kirish so'z vositasida voqelanishi ham mumkin. Bunda kirish so'z o'z vazifasiga ko'ra bog'lovchiga yaqinlashadi. Xususan, kirish so'z vazifasida kelgan modal so'zlarda bunday

imkoniyat ancha salmoqlidir. Rus tilshunosligida XIX asrning boshlarida modal soʻzlarning bogʻlovchi toifasiga kiritilganligi ham bejiz emas, albatta.

SHuni ham aytish kerakki, kirish soʻzlarni hozirgacha gapning boshqa boʻlaklari bilan grammatik aloqasi yoʻq morfologik vositalar tarzida oʻrganib kelmoqdamiz. Biroq kirish soʻzlarning baʼzi sintaktik xususiyatlari haqida keyingi yillarda ayrim muloxazalar ham bildirilmoqda. Bunga G.YA.Solganik tmoonidan aytilgan quyidagi fikr dalil boʻlishi mumkin:

“Soʻzlovchining oʻz nutqiga munosabatini bildiruvchi xabarga munosabat bildiruvchi kirish soʻzlar grammatik munosabatni ham ifodalaydi”. Bunday grammatik munosabat matn tarkibidagi gaplararo shakllanadi. SHuning uchun G.YA.Solganik kirish soʻzlarni oʻziga xos bogʻlovchi deb talqin etadi. Bu, oʻz navbatida, kirish soʻzlarning matn derivatsiyasida muhim ahamiyati borligini koʻrsatadi.

Matn sathida sintaktik vazifa bajarayotgan kirish soʻzlar oʻzaro sintaktik munosabatga kirishuvchi gaplarning old qismida (boshlanishida) keladi:

1. Nahor kelganiga qaramay, oʻzi ham bir tishlam non emadi. Toʻgʻrisi, tomogʻidan hech narsa oʻtmadi. Uzoq ezilib oʻtirishgandan keyin Sulaymon aka... Toʻtiqizni soʻradi (M.Ismoilij. Fargʻona tong otguncha).

2. Jamoliddinga hamrohi odimini tezlatganday, qayoqqadir shoshayotganday tuyuldi. Haqiqatdan ham, shunday edi (M.Ismoilij. Fargʻona tong otguncha).

3. Birinchidan, Oltinsoy suv hovuzining mavjud plotinasini yana uch metr koʻtarib, unga ikki kilometr masofada aylanma damba qurish, oʻtgan va avvalgi yili oʻzlashtirilgan erlerimizga tutashib ketgan qoʻriq va boʻzlarni ochish, shularning oʻzi oldimizga uchinchi masalani koʻndalang qilib qoʻydi (SH.Rashidov. Boʻrondan kuchli).

Keltirilgan birinchi matnda haqiqatdan ham birikmasi, uchinchi matnda esa ikkinchidan soʻzi oʻzlari qatnashayotgan gaplarni oldingi gaplar bilan bogʻlash uchun xizmat qilmoqda.

Matn shakllanishida bogʻlovchilar ham muhim vazifa bajaradi. Bunda bogʻlovchilarni vazifalariga koʻra ikkiga boʻlishga toʻgʻri keladi: 1. Mustaqil

gaplarning o'zaro munosabatini ta'minlovchi bog'lovchilar. 2. Abzatslar munosabatini ta'minlovchi bog'lovchilar.

Matn tarkibidagi mustaqil gaplarning sintaktik munosabatini ta'minlovchi bog'lovchilar mikro maydonda ham, makro maydonda ham qullanishi mumkin. Fikr isboti uchun quyidagi misollarga murojaat etamiz:

1. Muhammad Aminxo'ja "chap yonim bilan" turgan ekanman, degan fikrga keldi va ustidan sovuq suv quygandek, badani uvishib ketdi (S.Abdulla. Mavlono Muqimiy).

2. CHop shodlikning ketidan bir bilgirlik paydo bo'lib, goh bir xafachilik ketidan bir quvonch xujra eshigini qoqib kirmoqda (S.Abdulla. mavlono Muqimiy).

3. bunday reja Oltin Urdaga qarshi yurishda tajribadan o'tkazilgan edi. Lekin aksiga olib, o'sha yilga qish behad qattiq keldi (P.Qodirov. Ona lochin vidosi).

4. Xo'ja Heraviy bilan azaldan nizo qilib yurgan Xo'ja Ahmad Tusiy nomli devonbegi buni Samarqanga chappa qilib etkazdi. Go'yo xo'ja Heraviy xutba o'qiganda SHohruhni doim otasidan baland qo'yomish (P. Qodirov. Ona lochin vidosi).

Keltirilgan misollarning barchasida ham matn komponentlari bog'lovchilar vositasida sintaktik munosabatga kirishmoqda. Birinchi ikki misol teng komponentli murakkab sintaktik qurilma qolipida kelib, ularning birinchisida va, ikkinchichsida esa chop teng bog'lovchilari qatnashmoqda.

Uchinchi va to'rtinchi misollarda esa mustaqil gaplarningsh nuqtadan keyin kelayotgan bog'lovchilar yordamida sintaktik munosabatga kirishayotganini ko'ramiz.

Bog'lovchi makromatn tarkibida kelganda ko'proq abzatslarning semantik va bir paytning o'zida sintaktik aloqalarini ta'minlash uchun xizmat qiladi:

1. Atrofini o'rab kelayotgan merganlar yoy o'qi bilan uni nishonga olayotganlariga ko'zi tushib, vahimasi battar oshdi. Sarsosima ichida qoyatoshning narigi pana tomoniga o'zini otdi.

Biroq qoyaning narigi tomoni ikki yuz qiloch balandlikdagi tosh jarzov edi: Zov tagidan o'tgan Xirot daryosi tog'lardan kelgan sel bilan to'lib-toshib otmoqda (P.Kodirov. ona lochin vidosi).

2... oshirib bajarganlarga ustama mukofot belgilash; tog'da sobiq. Quyki rayonini tiklash; uning o'ziga xos ekonomikasi bilan alohida shug'ullanish...

Lekin bu takliflarni aytish uchun Orif aka ko'p idoralarning ichiga kirib chiqdi (A.Muxtor. CHinor).

Berilgan misollarning har ikkisi xam makromatnning muayyan parchalari sanaladi. Biri nchi misolda makromatnning ikki abzatsi biroq zidlov bog'lovchisi orqali sintaktik va semantik munosabatga kirishayotganini ko'ramiz. Ayni paytda ikki abzatsning sintaktik aloqasi uchun qoya, nargi tomoni so'z va so'z birikmalari xam xizmat qilmoqda. Bu o'rinda abzatslararo leksik takror qo'llanilayotganini ko'ramiz. Mazkur vositalar, o'z navbatida, abzatslar o'rtasidagi sintaktik munosabatning yanada mukammalroq tus olishiga ko'maklashmoqda.

Ikkinchi misolda abzatslararo sintaktik munosabat lekin zidlov bog'lovchi vazifasida shakllangani ko'zga tashlanadi. Bu o'rinda ham sintaktik aloqaning uzviy ekanligini qayd etamiz. CHunki ayni paytda ikki abzats sintaktik munosabati uchun ikkinchi abzats boshida kelayotgan bog'lovchidan tashqari, bu ko'rsatish olmoshi hamda birinchi abzatsda ma'no salmog'ini umumlashtirib ko'rsatayotgan takliflar so'zining ham ahamiyati katta bo'lmoqda.

SHuni ham aytish lozimki, ayni paytda biz biroq va lekin bog'lovchilariga to'xtaldik. Ammo faqat zidlv bog'lovchilari emas, balki bog'lovchining har qanday turi ham abzatslararo sintaktik munosabatni shakllantira oladi. Bundan tashqari, abzatslararo sintaktik munosabat olmosh, kirish so'z va birikmalar va boshqa shu kabi vositalar yordamida ham shakllanishi mumkin. Masalan:

1. SHohruh Mirzo hukmronlik qilgan sal kam yarim asr davomida Hirot va uning atroflariga bironta talonchi qo'shin bostirib kelolgan emas.

Bu o'n yilliklar mobaynida yov qo'shini tomonidan talanish va toptalish nimaligini bilmaydigan boyi badavlat odamlar ko'paygan edi. (P.Qodirov. Ona lochin vidosi).

2. Lekin u, o'z ta'biricha, bu "abordajnga" - 3amlaga ataylab azm etdi, ko'r io'yladi, ikkilandi, ba'zan o'zida shunga kuch sezdi, nima bo'lsa 3am vijdon izmidan qaytmadi.

Albatta, avvalo prof. SHumandan o'z avtoreferatiga qaqshatgich yozma fikr kutgan edi. Kelmadi (A.Muxtor. CHinor).

Keltirilgan misollarning birinchisida matnning oldingi abzatsida aytilgan sal kam yarim asr birikmasi bilan ikkinchi abzatsdagi uning sinonimik ifodasi o'n yillik birikmasi bu ko'rsatish olmoshi vositasida semantik bog'lanish tashkil etmoqda va bu orqali ikki abzats o'rtasida sintaktik aloqa shakllangan.

Ikkinchi misolda esa makromatn komponentlari – abzatslar albatta kirish so'zi yordamida sintaktik munosabatga kirishmoqda. Bunda kirish so'z oldingi matnning oxirgi gapi kesimi bilan bog'lanmoqda.

SHunday qilib, matn komponentlarining turli yo'llar bilan, jumladan, leksik takror, sinonimik vositalar, olmosh-substitutlar, kirish so'z va birikmalar, bog'lovchi kabilar yordamida sintaktik munosabat tashkil etishini ko'ramiz. Albatta, biz bu o'rinda mazkur vositalar xususida chuqur ilmiy mulohaza yuritayotganimiz yo'q. Ammo, shuni alohida ta'kidlash lozimki, ularning har biri alohida tadqiqot uchun asos bo'lishi mumkin.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Leksik takror deganda nimani tushunasiz?
2. Sinonimik vositalar leksik takrordan nimalariga ko'ra farqlanadi?
3. Olmoshlarning matn komponentlarini bog'lashda qanday ahamiyati bor?
4. Kirish so'z va birikmalar bog'lovchi vosita sifatida faqat mikromatnda qo'llaniladimi?
5. Bog'lovchining mikro va makromatnda qo'llanishi hamda vazifalarini izohlay olasizmi?
6. Matn komponentlarining semantik bog'lanishi sintaktik bog'lanishga ham ta'sir eta oladimi?

ADABIYOTLAR:

1. Gvozdev A.N. Soveremennyy russkiy literaturnyy yazyk, chast P. M., Prosveshchenie, 1968.
2. Silman T.I. Sintaktiko-stilisticheskie sosobennosti mestoimeniiy // Voprosy yazykoznaniya, 1970.
3. Solganie G.YA. Sintaksicheskaya stilistika. M., Vysshaya shkola. 1973.
4. Referovskaya E.A. Lingvisticheskie issledovaniya struktury teksta. L., Nauka, 1983.
5. Mamatov M., turniyazov N. Matn komponentlarining sintaktik munosabatlariga doir//Tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalari. Samarqand, 2003.
6. Turniyazov B. Teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, №6, 2002.
7. Kojevnikova K. Ob aspektax svyazannosti tekste kak tselom // Sintaksis teksta (sbornik nauchnyx rabot). M., Nauka, 1979.

MATN TILSHUNOSLIGI VA DIALOG

Tayan so'z birikmalar: So'zlovchi va tinglovchi muloqati, o'rin almashinish, tarbiylik, suniylilik, birlamchi va ikkilamchi xarakter, kundalik va yon daftarcha, reaksiya, replika, komponent lar modalligi, dialogik modallik, ekstolingvistik omillar, presupazitsion ma'no, intonatsiya, enliptik va vokativ qurilma, parselliatsiya, dialogda maqsad ifodasi, juft dialog, parallel dialog, palilog.

Jahon tilshunosligida dialogik nutq lingvistik nazariyasi o'tgan asrning 40 yillari oxirida asoslanadi. SHundan buyon bu sohada ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi va salmoqli material vujudga keldi. Aytish lozimki, dialog va uning lingvistik tahlili ancha murakkabdir. Zotan, u til sistemasining nutqda inson tomonidan real qo'llanishi taqozo etadi. Bu jihatdan uni tilning amalda qo'llanilishida asosiy ob'ektlardan biri sifatida talqin etish mumkin. Dialogning bunday xususiyati haqida hali 20 yillarda rus tilshunosi L.I.YAkubinskiy ma'lumot bergan edi. Uning to'g'ri ta'kidlashicha til inson salohiyatining

muhim jixatlardan biri taqozo etadi va jamiyatda insonning muloqati uchun eng muhim boylik hisoblanadi. bu jihatda dialog inson hayoti faoliyatining ajralmas qismi sanaladi.

Dialog tilning nutqqa ko'chirilishida har doim kamida ikki kishi mulohatini nazarda tutadi. CHunki u so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida voqelanadi. Bunda shu narsa xarakterliki, so'zlovchi va tinglovchi o'rinlari almashib turadi. Ana shu jihatdan dialogni nutq materiali sifatida o'rganganda uning yaxlitligi kamida ikki kishi faoliyatning majmuasi sifatida yuzaga kelishi e'tiborga almoq lozim bo'ladi. SHuning uchun dialogning lingvistik tahlili bilan shug'ullanganda har doim uni monolog qiyos qilinadi. Zotan, monolog kimgadir qaratilmaydi. Dialog esa har doim kimgadir qaratilgan bo'ladi va uning ishtirokida shakllanadi. Monolog nutq materiali sifatida tasadufan vujudga kelmaydi va u bir kishining har tomonlama mukammallik kasb etgan nutqini taqozo etadi. Dialog esa nutqiy muloqot davomida avvaldan rejalashtirmagan holda shakllanadi. Bunnan tashqari dialog ishtirokchilari bir-birini ko'rib turadilar va eshitadilar. Lekin shunga qaramastan, ayrim nutqiy jarayonda dialog monologik xarakter olishini ham ko'zatish mumkin. Bunday vaziyat dialog ishtirokchilarining nutqi ko'p komponentli va davomili bo'lganda ko'zga tashlanadi. Bu yaqinlik albatta dialogni monolog bilan mushtarak hodisaga aylantira olmaydi. Dialog bilan monolog bir-biridan yana quyidagilar orqali farqlanadi. Dialog tabiiy xarakterli bo'lsa monologda so'niylik mavjud bo'ladi. DDialog birlamchi xususiyatga ega, monolog esa ikkilamchi xarakter kasb etadi. CHunki bunda til sistemasining okkazional qo'llanishini qayd etish mumkin xolos. SHu bois V.V.Vinogradov monolog tilning umumiy qo'llanishining emas, balki individual qo'llanishining maqsuli ekanligini ta'kidlaydi. YUqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish kerakki, ayrim tilshunoslar dialog bilan monolog o'rtasidagi farqni imkon qadar qisqartirishga harakat qildilar. Masalan, A.A.Xolodovich monolog jumlasiga kundalik va yon daftarchalarini kiritadi. Unda albatta dialog keng ma'noda tushuniladi. Dialogik nutq haqida fikr yuritganda albatta uning asosiy komponentlardan biri replika ekanligini qayd etish darkor. Zotan, respublika bir paytning o'zida aktsiya va

reaktsiya tushunchalarini ifodalaydi. Replika dialogning barcha turlarida juft dialog parallel dialog, palilog qatnashadi. Dialogning lingvistik tahlili xususida soʻz yuritadi ekanmiz, jumlar maqsadi va predmetlari soʻzlovchilarning nutqiy tayyorgarliligi muloqat ishtirokchilarning xabarga munosabati muloqat muhiti nolingvistik omillari ham eʼtiborga olish zarur. Chunki dialogik nutq ana shularning barchasi agʻushida shakllanadi. Dialog lingvistik tahlilida yuqorida eslatib oʻtilgan uning turlarin aniqlash hamda dialog komponentlarining modallik xususiyatlarini oʻrganish muhim ahamiyatga egadir. Bunda xususan, subʼektiv modallik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Subʼektiv modallik soʻzlovchining oʻzga nutqga munosabati orqali ifodalanadi.

Bunnan tashqari yana dialogik modallik ham boʻlib u tasdiq yoki inkor rozilik yoki norazilik qarshilik yoki qoʻllab-qoʻvatlash kabi holatlar orqali oʻz ifodasini topadi. Dialogik nutqda javob replikasi ham modal maʼno ifodalaydi. Bunday modallik monologik nutqga umumiy holda tegishli boʻladi. Dialogik nutqning lingvistik tahlil uchun ekstrolingvistik omili ham sabab boʻlishi mumkin. Masalan, soʻzlovchining nutqga tayyorligini olib koʻraylik. Bu narsa dialogik nutq strukturasi shakllanishida kuchli mavqega ega boʻlib, u faqat soʻzlovchining nutqiy tayyorgarligini emas, balki bir paytning navbatida dialogik nutq komponentlari jumlarining sintaktik shakllanishiga taʼsir etadi. Taniqli rus tilshunosi E.D.Polivanov dialog haqida gapirganida nutqning gap nima haqida ketayotganini idrok etuvchi oʻz tinglovchisiga ehtiyoji boʻlishini alohida taʼkidlagan edi. Buning ahamiyati katta. Chunki soʻzlovchining fikri tinglovchiga qaratilgan. Buladi va tinglovchi uni oʻzicha tushunadi. Shu bois soʻzlovchi nutqining maʼnosini tinglovchida presuppazitsion maʼnoda esteʼmol qilinishi ham mumkin. Masalan, Eshik ochiqmi? Eshik yopiq emasmi?

Kishilarning muloqatida xabar ifodasining voqelanishi mumika, jest, inson gavdasining turlicha harakatlari soʻzlovchining intellektual va emotsional holati kabi omillar bilan xam bogʻliq boʻladi. Mazkur omillar til sistemasi unsurlarining nutqqa koʻchirilishini taʼminlashda ham faol intirok etadi. Biroq, shunday boʻlishiga qaramastan, ulardan haligacha dialog lingvistikasida samarali foydalanilmayapdi. Aniqrogʻi, dialogning yaxlitlangan nutq tarzida

shakllanishida mazkur vositalarning ahamiyati me'yor darajada o'rganilmayapti.

YUqoridagilardan tashqari, dialog tabiatini o'rganishda intonatsiyaning ham ahamiyati kattadir, zotan, intonatsiya til sistemasi belgilarining amalga qo'llanilishida har doim, polingvistik vosita bo'lishiga qaramay, yordamchi vosita sifatida faollik ko'rsatadi. Aytish lozimki, intonatsiya til unsuri emas va shu bois uning til sistemasida o'rni ham yo'q. Lekin u til materialining real qo'llanishiga inson orqali ko'chli ta'sir ko'rsat oladi. Buni dialog komponentlarining o'zaro munosabatida yanada aniqroq kuzatish mumkin. Bunda intonatsiyaning bog'lovchi vazifasida kelishini ko'ramiz. Intonatsiya mazkur jarayonda dialog ishtirokchilari har birining nutqi komponentlarini o'zaro bog'lash uchun xizmat qilibgina qolmay, ularga nutqiy faollik berilishida ham ishtirok etadi.

Dialog lingvistik talqinida elliptik qurilmalar, shuningdek, yokativ gaplarini ham asos qilib olish mumkin. Dialog ishtirokchilari ma'lum mavzu bo'yicha xabar ifodasini berishda ko'proq to'liqsiz gaplar, elliptik qurilmalardan foydalanadilar. Buning asosiy sababi so'zlashuv muhitidan kelib chiqqan holda gap bo'laklarining nutqda tushirilib qoldirilishi bilan bog'liqdir. Chunki tushirilgan bo'lak nutqiy muhitdan anglashilib turadi va gap mazmunining mukammalligiga ta'sir qilmaydi:

- O'zinga ham shu bugun ma'lum bo'ldi. Abdulla akamning o'rniga men ketadigan bo'ldim.
- Qachon?
- Erta-indin.
- Maskovda nima qilasiz?
- Savdo Maskovda, jonim, yaxlit foyda ham u erda. Maskovdan niam olib kelay senga? Buyur!
- O'zingiz eson qaytsangiz bas. Toshkentda menday to'kis kelin bormikan? Hamma narsa joyida... (Oybek. Qutlug' qon).

Keltirilgan misolda qo'llanilgan ba'zi gaplarga ahamiyat bersak, bu gaplardan ega ham, kesim xam tushirilganini ko'ramiz. (Siz) qachon jo'naysiz? (men) erta indin-jo'nayman.

Dialogik nutqda bir so'zli gaplarning qo'llanilishi ham alohida tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin:

- Gaplashdingizmi? – Yo'q.
- Aya! Qo'ying qayoqdagi gaplarni...
- Xo'p (A.Muxtor. Ildizlar).

YUqorida eslatib o'tilgan singari dialogik nutqning lingvistik tahlili uchun vokativ gaplar ham material bo'la oladi:

- Hoy, musulmonlar! Hoy, ahli mahalla!
- Yo'lchiboy! Voy qadrdamim, jigarim (Oybek. Qutlug' qon).

Dialogik nutqning xarakterli jihatlaridan yana biri unda parsellyativ qurilmalar qo'llanishidir. Parsellyattsiya hodisasida ma'lum bir gap uzuq-yuliq holda parchalarga bo'linib beriladi. Masalan: - Men qarzdorman. Salimban. – Hali kerak bo'lib qoladi. Qishda.

Ko'rinadiki, parchellayatsiyahodisasida asosiy gapga parsellyat, ya'ni undan ajratilgan bo'lak tirkaladi va bu bilan o'ziga xos sintaktik ko'rinizga ega bo'lgan qurilma vujudga keladi.

Dialog nutqda turg'un so'z birikmalarining shuningdek, frazeologik iboralarning qo'llanilishi ham lingvistik tahlil ob'ekti bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda tinglovchiga xabar mazmunini ancha ta'sirchan etkaziladi:

- Nimasini surishtirasiz, mulla aka, xo'jayinlar orasidan epaqaga keladiganini qidirish anqoning tuxumini qidirish bilan barobar ekan. (Oybek. Qutlug' qon).

YUqorida eslatib o'tilgan sintaktik qurilmalarning barchasi dialogik makrostrukturani tashkil etuvchi vositalar sanaladi. Dialogda qanday sintaktik qurilma qo'llanishidan qat'i nazar, ma'lum bir maqsad ko'zda tutiladi. Bunda global maqsad va uning tasarrufida shakllanuvchi qo'shimcha maqsadlar ham bo'lishi mumkin.

Dialogik nutqda maqsad ifodasi bir necha shaxs yoki so'zlovchi va tinglovchi tomonidan voqelanishi me'yoriy holat hisoblanadi. Ammo dialog qatnashchilarining har biri aniq bir sub'ektini taqozo etsa ham, ularni grammatik sub'ekt bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, dialog ishtirokchilari sintaktik kategoriya unsurlari bo'lolmaydi. Fikr iboti uchun quyidagi misolga murojaat etaylik:

A. Segodnya xoroshaya pogoda.

B. Ochen xoroshaya.

V. Solntse svetit.

G. No sovsem ne jarko.

D. Potomu chto est nebolshoy veter.

E. I potomu chto solntse v etot chast uje ne jarkoe.

Keltirilgan dialogda so'zlovchi sub'ektlar soni to'rtta bo'lsa ham, sintaktik shaxs barcha jumalalarda yagona va o'zgarmas holatda ekanini ko'ramiz. Bu, o'z navbatida, dialog materiali mualliflarining berilayotgan sintaktik strukturalar lingvistik tahliliga aloqasi yo'qligini ko'ramiz.

Ba'zan dialog sintaktik strukturasi materialini tashkil etayotgan muayyan bir gap nutq muhitining barcha ishtirokchilari tomonidan parcha-parcha holatda aytilishi xam kuzatiladi. Bunga YU.V.Vannikovaning quyidagi misoli dalil bo'lishi mumkin.

Petya: V lesu.

Masha: Rolilas

Lena: V lesu.

Olya: Ona rasla.

Ayni paytda dialog makrostrukturasi yagona bir gap orqali ifodalanmoqda. Uning mikrostrukturasi esa o'sha makrostrukturasi mualliflari sanaluvchi besh kishining nutqida alohida ko'rinishlarda ifodalanayotganini ko'ramiz.

SHuni ham aytish lozimki, dialogik nutqda murakkab sintaktik qurilmalar juda kam qo'llaniladi. CHunki so'zlovchi bunda imkon qadar ixcham sintaktik qurilmalardan ifodalanishga harakat qiladi. Bu, albatta, dialogik nutq

muallifining ijtimoiy holati bilan ham bog'liq masaladir. Agar dialog ishtirokchilari ziyolilar bo'lsa, ular nutqida, kam bo'lsa-da, murakkab sintaktik qurilmalarni kuzatish mumkin. bolalar nutqida esa bunday qurilmalar mutlaqo ishlatilmaydi.

SHunday qilib, biz dialog va uning lingvistik tahlili bilan bog'liq masalalar bilan qisqacha tanishib chiqdik va bu jarayonda dialog lingvistik tahlili bilan aloqador bo'lgan barcha masalalarning hozirgi tilshunosligimizda dolzarb ekanligini ko'rdik. Buning boisi shundaki, dialogik nutqning lingvistik tahlili bobida jahon tilshunosligida qilinayotgan ishlar hozircha masala tavsifining devochasini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, dialog lingvistik tahlil tilshunoslarimizdan hali ko'p kuch va g'ayrat talab qiladi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:

1. Dialogik nutq lingvistik nazariyasi qachon asoslandi?
2. Rus tilshunosligida o'tgan asrning 20-yillarida kim tomonidan dialogning lingvistik tahliliga bag'ishlangan ilmiy maqola e'lon qilinadi?
3. Dialogik nutqda so'zlovchi va tinglovchining o'rinlari barqarormi?
4. Dialogik nutq monologik nutqdan qanday farqlanadi?
5. Dialogning qanday turlarini bilasiz?
6. Qanday unsurlar dialoglarning barcha turlarida ishtirok etadi?
7. Dialogik nutqqa qanday ekstralingvistik omillar ta'sir o'tkaza oladi?
8. Dialog shakllanishida intonatsiyaning ahamiyatini izohlang.
9. Qanaqa sintaktik qurilmalar dialogning lingvistik tahlili uchun ob'ekt bo'la oladi?
10. Dialogik nutqda qo'llanuvchi remarka va replika bir-biridan qanday farqlanadi?
11. Remarka va replikaning qanday turlarini bilasiz?
12. Dialog nutqda maqsad ifodasi qanday mavqega ega?
13. Dialogik nutqning marko va mikrostrukturalarini qanday belgilaysiz?

ADABIYOTLAR:

1. YAkubinskiy L.R. O dialogicheskoy rechi // Russkaya rech. Peterburg, 1923.
2. Polivanov E.D. Факторы фонетической эволюции языка как турдового процесса. RANION. Ученые записки, тз. М, 1928.
3. Vinogradov V.V. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika. М., 1963.
4. Xolodovich A.A. O tipologii rechi // Istorikofilologicheskie issledovaniya. Tom q, k 75-letiyu akad. N.I.Konrada. М., Nauka, 1967.
5. Vannikov YU.V. Sintaksis rechi i sintaksicheskie osobennosti russkoy rechi. М., 1979.
6. Lafasov O'. Dialogik nutqda sub'ektiv modallikning ifodalanishi. NDA, T., 1996.
7. Solijonov Y. Remarkalar haqida // Til va adabiyot ta'limi, 2005, 5-son.
8. Solijonov Y. Hozirgi o'zbek nasrida nutq shakllari // O'zbek tili va adabiyoti, 2001, 6-son.
9. Xazratqulov A. O'zbek tili dialogik nutqi sintaksisi. T., Fan, 1991.
10. Xazratkulov A. Dialogicheskaya rech v uzbekskom yazыke, Avtor.dis.kand.filol.nauk.Samarqand, 1965.
11. Xaldarova S.M. Semantiko-strukturnye osobennosti dialogicheskoy rechi v uzbekskom yazыke. Avtor.dis.kand.filol.nauk. T., 1974.